

# **ONA TILI**

**ABITURIYENTLAR UCHUN QULAY QO'LLANMA.**

## **SINTAKSIS**

**QILICHEV JAHONGIR**

**Ilm – qaytarish va takrorlash mevasidir”**

(Abu Rayhon Beruniy)

## SINTAKSIS

Nutqimizda gaplardan foydalanamiz. Gap tarkibidagi so'zlar o'zaro bog'langan bo'ladi. So'zlar bog'lanishi uchun ular quyidagi talablarga mos kelishi kerak:

1) ular mustaqil so'z turkumlariga mansub bo'ladi. Masalan, *kitob o'qimoq, maktab tomon bormoq*. Lekin *maktab tomon, ukam uchun, telefon orqali* birikuvlarida ikkinchi qism mustaqil so'z bo'limganligi uchun so'zlarning bog'lanishiga misol bo'la olmaydi.

2) so'zlarning ma'nolari o'zaro mos kelishi lozim. Masalan, *oyna* so'zining ma'nosi *sinmoq* so'zining ma'nosiga mos. Lekin *randalamoq, uzilmoq* so'zlariga mos emas. Shuning uchun so'zlarni bog'layotganga ma'nposi mos bo'limgan so'zlarni bog'lash xato bo'ladi.

3) so'zlarni bog'lovchi vositalar ham o'z o'rnidagi bo'lishi kerak. Masalan, *Toshkentda yashayman, ukamning kitobi* birikmasida qo'shimchalar to'g'ri qo'llangan. Lekin *Tishkentga yashayman, ukamni kitobi* birikmasida qo'shimchalar noto'g'ri qo'llangan.

**Eslatma!** Gapdagi so'zlarning o'zaro bog'lanishi (tobe bog'lanishi) sintaktik aloqa deyiladi va sintaktik aloqani o'rjanuvchi bo'lim *sintaksis* deyiladi.

**Eslatma!** Sintaksis yunoncha, "syntaxis" so'zidan olingan bo'lib, *yopishtirish, bog'lash* degan ma'nolarni anglatadi. Xullas, Sintaksis so'z birikmasi va gap haqidagi ta'limotdir.

**Eslatma!** Mustaqil so'zlarning nutqda bog'lanishidan **so'z birikmasi** hosil bo'ladi. Birikib **so'z birikmasini** hosil qiladi. So'z birikmasi bo'lishi uchun:

1) kamida ikkita mustaqil so'z bo'lishi shart;

2) bu so'zlar ma'no jihatdan mos bo'lishi kerak;

3) so'zlarning biri ikkinchisiga ergashishi, ya'ni tobelanishi kerak;

4) qo'shimcha va yordamchi so'zlar mustaqil so'zlarni bog'lashi kerak.

**Eslatma!** So'z birikmasi har doim ikki qismdan iborat bo'ladi va tobe so'z oldin, hokim so'z esa keyin keladi.

*Masalan, Katta uy (Katta-tobe; uy-hokim), Qushning qanoti, Yaxshi gapirmoq.*

**Eslatma!** *Tobe* so'z hokim so'zni aniqlab, to'ldirib, izohlab keladi. Ma'nosi izohlanayotgan so'z esa **hokim so'zdir**. (*Ya'ni, tobe so'zdan keyin kelgan so'z*).

**Eslatma!** Hokim so'zning qaysi so'z turkumiga mansubligiga qarab so'z birikmasi ikkiga bo'linadi: **Oqli so'z birikmasi va fe'lli so'z birikmasi**.

**1. Otli so'z birikmasi** – Hokim so'z ot, sifat, son, olmosh, ravish, son, undov, taqlid so'z, modal so'z bilan ifodlanadi. *M: Shaharning ko'rki, hammadan katta, chumchuqning chug'ur-chug'uri, o'quvchilarning o'ntasi, katta qishloq.*

**2. Fe'lli so'z birikmasi** – Hokim so'z fe'l bilan ifodalanadi. *M: Tez yurmoq, ohista gapirmoq, ta'sirli so'zlamoq, zavq bilan o'qimoq.*

**Eslatma!** Quyidagi so'zlarni<sup>1</sup> izohi bilan yodlang!

- 1. Viqor** - mag'rurona va ulug'ver ko'rinish, salobat;
- 2. Kibr** - o'zini hammadan yuqori his etish; manmanlik, kekkayish hissi;
- 3. G'urur** - insonning o'z qadr-qimmatini bilishi, hurmat qilishi; izzat-nafs;
- 4. Gunoh** – odob-axloq doirasiga sig'maydigan ish, nojo'ya xattiharakat; ayb;
- 5. Iffat** – vijdoni poklik, nomus
- 6. Haromxarish** – nopol, iste'molga yaramaydigan;
- 7. Hayo** – nojo'ya, noma'qul xatti-harakatdan tiyilish hissi; uyat, sharm;
- 8. Odob** - axloqqa, shaxsning ichki dunyosiga oid;
- 9. Ma'naviyat** - jtimoiy va shaxsiy hayotdagi yaxshi axloq;
- 10. Ziyo** - bilim, ilm, ma'rifat

**Eslatma!** So'z birikmasi uch xil bo'ladi:

**1. MOSLASHUV** – Tobe so'zning hokim so'zga *qaratqich kelishigi –ning* qo'shimchasi yordamida, hokim so'zning esa tobe so'zga *egalik qo'shimchalari* yordamida bog'lanishidir. *M: Mening oilam. Sening oilang. Bizning oilamiz.*

**Eslatma!** Moslashuvli bog'lanish ikki tomonlama bog'lanish deyiladi. Chunki moslashuvda tobe va hokim so'z bir-biri bilan shaxs va sonda moslashadi. Bunday bog'lanishda tobe qism ***qaratqich***, hokim qism esa ***qaralmish*** deb nomlanadi. *M: mening oilam – men-I shaxs, -m – I shaxs egalik. (Mening – ***qaratqich***, oilam – ***qaralmish***).*

**Eslatma!** Ko'pincha qaratqich kelishigi yoki egalik qo'shimchasi, ba'zan esa har ikkalasi tushib qolishi mumkin. Ular quyidagicha:

1. O'rikning sharbati.
  2. Orik sharbati
  3. O'rik sharbat.
- 2. BOSHQARUV** – Bunda tobe so'z hokim so'zga ***-ni, -ga, -da, -dan*** kelishik qo'shimchalari hamda ***bilan, uchun, sari, sayin, qadar, singari, tomon, qarab, bo'ylab, haqida, to'g'risida*** singari ko'makchilar bilan bog'lanadi. *M: Kitobni o'qimoq, uyga ketmoq, do'sti bilan gaplashmoq, sharoitga ko'ra yondashmoq, Ukasi uchun oilmoq.*

<sup>1</sup> Bu ma'lumot yangi nashrdagi 8-sinf ona tili (2019) darsligidan olindi. DTM testda variantida keladi.

**Eslatma!** Testlarda ot boshqaruvi, sifat boshqaruvi, ravish boshqaruvi singari savollar kelishi mumkin. Bunda so'z birikmasining boshqaruv turi bo'lib, hokim so'z yo ot, yo sifat, yo ravish bo'lishi kerak.

*Ot boshqaruvi – Do'stim uchun sovg'a;*

*Sifat boshqaruvi – Hammadan chiroyli, mendan kichik.*

*Ravish boshqauvi – tovushdan tez, hammasidan ko'p.*

**3. BITISHUV** – Bunda tobe va hokim so'z kelishik va ko'makchilarsiz, faqat ohang va ma'nosiga ko'ra bog'lanadi. *M: Tez termoq, kulib gapirmoq, o'qigan bola, ko'kimtir eshik, sahrodagi uy, yuzlab mashinalar.*

**Eslatma!** *Tubdan, birdan, zimdan, chindan, rostdan, yurakdan, qo'qqisdan, birga* singari so'zlar tarkibida *-dan* chiqish kelishigi, *-ga jo'nalish* kelishigi qotib qolib ajralmas holga kelgan va ravishga aylangan. Shuning uchun bunday so'zlar **bitishuvli so'z birikmasini** hosil qiladi.

*M: To'satdan kirmoq, yurakdan bajarmoq, qo'qqisdan yiqilmoq.*

**Eslatma!** *Bilan* ko'makchisi ayrim birikmalarda o'z vazifasini yo'qotadi, bunday vaqtida *nima bilan?* emas *qay holda?* so'rog'iga javob bo'ladi hamda so'z birikmasining bitishuv turi hisoblanadi.

Hayajon bilan gapirmoq, qunt bilan o'rganmoq, zavq bilan ishlamoq.

**Eslatma!** Sodda gap tarkibida so'z birikmalari miqdorini aniqlash uchun dastlab ega va kesim chiqarib tashlanadi. Mustaqil so'zlar hamda taqlid so'zlar raqamlab chiqiladi va so'zlar bir boshidan hokim so'zlarga bog'lanadi.

1            2            3            4            5

*M: Katta sment ko'prik ustidan mashinalar tinimsiz o'tib turibdi.*

- 1) *Katta ko'prik – bitishuv, otli*
- 2) *Sment ko'prik – bitishuv, otli*
- 3) *Ko'prikning usti – moslashuv, otli*
- 4) *Ustidan o'tib turmoq – boshqaruv, fe'lli*
- 5) *Tinimsiz o'tib turmoq – bitishuv, fe'lli.*

*1) Hozir 2shu 3zulm va 4adovat tikanlari 5o'zining 6ilk 7mevasini berdi.*

- 1) *Hozir bermoq – bitishuv, fe'lli*
- 2) *shu zulm – bitishuv, otli*
- 3) *shu adovat – bitishuv, otli*
- 4) *zulmning tikanlari – moslashuv, otli*
- 5) *adovatning tikanalari – moslashuv, otli*
- 6) *o'zining mevasi – moslashuv, otli*
- 7) *ilk mevasi – bitishuv, otli*

8) mevasini bermoq – bosharuv, ***fe'lli***

Sohibqiron-1ayol 2qadriga, 3go'zalligiga 4ichki 5samimiy 6muhabbat bilan qaragan.

- 1) ayolning qadri – moslashuv, ***otli***
- 2) ayolning go'zalligi – moslashuv, ***otli***
- 3) qadriga qaramoq – boshqaruv, ***fe'lli***
- 4) go'zalligiga qaramoq – boshqaruv, ***fe'lli***
- 5) ichki muhabbat – bitishuv, ***otli***
- 6) samimiy muhabbat – bitishuv, ***otli***
- 7) Muhabbat bilan qaramoq – bitishuv, ***fe'lli***

**Eslatma!** Quyidagi **so'zlarni<sup>2</sup>** izohi bilan yodlang!

- 1. Uslug** – til unsurlarining ma'lum vazifa bajarishiga bog'liq holda birlashadigan, o'ziga xos tanlanadigan tizimi;
- 2. Malaka** – bilim va kasbni, ishni yaxshi o'zlashtirish natijasida orttirilgan tajriba; mahorat;
- 3. Sheva** – umumxalq tilining ma'lum hududga xos tarmog'i, mahalliy til.
- 4. Targ'ibot** – biror g'oya, ta'limot va shu kabilarni yoyishga, kishilar ongiga singdirishga qaratilgan ishlar.
- 5. Adabiy** – badiiy adabiyotga, badiiy ijod faoliyatiga oid

### **So'z birikmalarini tahlil qilish**

1. So'z birikmalari aniqlab olinadi.
2. Hokim va tobe so'zning birikish turi aniqlab olinadi.
3. Hokim va tobe so'zni bog'lovchi grammatik vositalar aniqlab olinadi.
4. Hokim va tobe so'zning qaysi so'z turkumiga mansubliligi va shu orqali fe'lli yo otli so'z birikmalari aniqlanadi.

1            2            3            4

Ahmad o'z hayotida esda qoladigan hech nima ko'rmadi.

1. O'zining hayotida (moslashuv; -ning qaratqich kelishigi; ***otli***)
2. Hayotida ko'rmadi (Boshqaruv; -da kelishigi, ***fe'lli***)
3. Esda qoladigan hech nima (bitishuv; ohang; ***otli***)
4. Hech nimani ko'rmadi (boshqaruv; -ni tushum kelishigi; ***fe'lli***).

**Eslatma!** Testlarda **sintaktik aloqalar** (yoki **tobe bog'lanishlar**) miqdori so'ralsa, so'z birikmasining umumiyl miqdoriga ega va kesim bog'lanishi bitta sintaktik aloqa (tobe

---

<sup>2</sup> Bu ma'lumot yangi nashrdagi 8-sinf ona tili darsligidan olindi. DTM testda variantida keladi.

bog'lanish) sifatida qo'shiladi va sintaktik aloqa (tobe bog'lanish) miqdori kelib chiqadi.

**1) Darveshalining 2zindonda yotishi 3Alisherning 4yuragida 5dushmanlik 6olovini to 'ldirdi.**

1) *Darveshalining yotishi - moslashuv*

2) *zindonda yotmoq - boshqaruv*

3) *Alisherning yuragi - moslashuv*

4) *yuragida to 'ldirmoq - boshqaruv*

5) *dushmanlikning olovi - moslashuv*

6) *olovini to 'ldirmoq - boshqaruv*

*So'z birikmasi – 6ta.*

---

**Yotishi to 'ldirdi Tobe bog'lanish- 7 ta.**

**Eslatma!** So'z birikmali yoki tobe bog'lanishlar miqdori so'ralganda gapda ibora yoki qo'shma so'zlar bo'lsa ular bir so'z sifatida qaralishi kerak.

*M: Bu dori bosh og'rig'ini darrov goldiradi. So'z birikmasi –4 ta. Tobe bog'lanish 5ta.*

**Boshog'rinqi ko'paytirmaslikni qattiq ta'kidladi.** So'z birikmasi -3 ta. Tobe bog' – 4 ta.

*Bu yuklar hozircha omborning ichiga sig'maydi.* So'z birikmasi – 4ta, tobe bog' – 5 ta.

**Shu kunlarda Feruzaning sevinchi ichiga sig'maydi.** So'z birikmasi -2 ta. Tobe bog' -3.

*Semiz qo'y go'shti o'z yog'ida qovruldi.* So'z birikmasi – 4 ta. Tobe bog'lanish -5ta.

*Hasanboy vijdon azobida o'z yog'ida qovruldi.* So'z birikmasi – 2 ta. Tobe bog' – 3 ta.

## **TENG BOG'LANISH VA TOBE BOG'LANISH**

So'zlarning o'zaro bog'lanishi ikki xil bo'ladi:

**1. Teng bog'lanish** – Bir mustaqil so'z boshqasiga ergashmay, izohlamay bog'lansa, ***teng bog'lanish*** deyiladi. So'zlarning teng bog'lanishi ***so'z qo'shilmalarini*** hosil bo'ladi. Teng bog'lovchi so'zlar: biriktiruv, zidlov, ayiruv, inkor yuklamasi hamda kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari.

*Olma va anor. Olma yo anor. Olma-yu anor. Na olma, na nor. Olma emas, balki anor.*

**Eslatma!** Teng bog'langan so'zlar bir xil gap bo'lagi vazifasida keladi.

**Eslatma!** So'z qo'shilmasida so'zlar teng huquli bo'ladi: *opamni va akamni, Siz bilan biz.* M: *Keng paxtazorda dehqonlar va hasharchilar oppoq, momiq paxtalarni zavq bilan termoqda.* ***Teng bog'lanish(so'z qo'shilmasi)*** – 2 ta.(1-dehqonlar va hasharchilar; 2-oppoq, momiq.)

**2. Tobe bog'lanish** – Bir mustaqil so‘z boshqa mustaqil so‘zni izohlaydigan bog‘lanish **tobe bog‘lanish** deyiladi. *Ya’ni, tobe bo’laknng hokim bo’lakka egalik, kelishik, ko’makchi, ohang, zamon va shaxs-son qo’shimchalarini bilan tobelanishiga aytildi.* Bu tobelanish ikki xil sintaktik birlikni hosil qiladi:

**I) So‘z birikmasi** – Egalik, kelishik, ko’makchi va ohang yordamida bog‘lanadi.

*Gulning ochilishi, shirin olma.*

**II) Gap hosil bo’ladi** – Zamon va shaxs-son yordamida bog‘lanadi.

*Gul ohildi. Men talabaman.*

**Eslatma!** Quyidagi **so’zlarni<sup>3</sup>** izohi bilan yodlang!

**1. Mavlono** - olim va fozil kishi.

**2. Mulozim** – o’tmishda amaldorlar xizmatida bo’lgan kishi.

**3. Jigargo‘sha** – eng yaqin kishi, tug‘ishganday yaqin birodar; farzand.

**4. Padari buzrukvor** – cheksiz hurmatga loyiq ota.

**5. Xok** – mayda tuproq; tuproqqa aylangan inson jasadi.

**6. Aqlini peshlab** – asboblar tig‘i, damini tiklamoq; aql-idrokni o’stirmoq

## SO‘Z BIRIKMASI VA GAPNI FARQLASH

**1.** Fe’llli so‘z birikmasida hokim so‘z harakat nomi (-sh,-ish, -v, -uv, -moq, -mak) shaklida bo’lsa, so‘z birikmasi hisoblanadi. Agar hokim so‘z zamon, shaxs-son, mayl shakllarida bo’lsa gap hisoblanadi.

*so‘z birikmasi*

*gap.*

*G’azalni yod olmoq*

-

*G’azalni yod oling*

*Ko’p o’qimoq*

-

*Ko’p o’qidi*

**2.** Bitishuvli so‘z birikmalarining otli birikma turida hokim bilan tobening o’rnini o’zgartirsak gap hosil bo’ladi.

*So‘z birikmasi*

*Gap*

*Mustaqil O’zbekiston*

*O’zbekiston Mustaqil(dir)*

*Shirin olma*

*Olma shirin(dir)*

*O’nta bola*

*Bola o’nta(dir)*

*Birinchi guruh*

*Guruh birinchi(dir)*

**Eslatma!** Agar tobe qismga kim? nima? qayer? so’rog‘i berilsa gap hisoblanadi. Tobe qismga qolgan barcha so’roqlar berilsa, u so‘z birikmasi hisoblanadi.

<sup>3</sup> Bu ma’lumot yangi nashrdagi 8-sinf ona tili darsligidan olindi. DTM testda variantida keladi.

**3.** Moslashuvli so'z birikmalarida tobe va hokim so'zning almashishi va almashmasligidan qat'i nazar so'z birikmasi bo'lib qolaveradi.

*Mening oilam – oilam mening.*

### **GAPDA SO'ZLARNING BOG'LANISHINI ANIQLASH**

Gapda so'zlar o'zaro teng va tobe bog'lanadi. Teng va tobe bog'lanish **garammatik bog'lanish** hisoblanadi. **Tobe bog'lanish** deganda so'z birikmasida so'zlarning bog'lanishi va gapda ega va kesimning bog'lanishi tushuniladi. (*ya'ni, so'z birikmasi+ega va kesim=tobe bog'lanish*). Gapda so'roqqa javob bo'lувчи har bir mustaqil so'z grammatik bog'lanishda ishtirot etadi.

*M: Biz Navoiy, Fuzuliy, Mashrab g'azallarini o'qidik.*

**So'z birikmasi – 4 ta. Tobe bog'lanish – 5 ta. Grammatik bog'lanish – 6 ta.** (*tobe bog'lanish+teng bog'lanish=Grammatik bog'lanish*).

**Eslatma!** Testda moslashuvli so'z birikmasi so'ralsa har doimgidek, *-ning* bilan birkkanlarni olamiz. Ammo **moslashuvli tobe bog'lanish** so'ralsa *-ning* bilan birkkan so'z birkmasi va ega kesimning birikishini ham olamiz. Chunki ega va kesim shaxs va sonda moslashadi va moslashuvli tobe bog'lanish hisoblanadi.

*M: Sohibqiron ayol go'zalligi va qadriga ichki mhabbat bilan qaragan.*

**Moslashuvli so'z birikmasi:** 2 ta (*Ayolning go'zalligi, ayolning qadri*)

**Moslashuvli tobe bog'lanish:** 3ta (*Ayolning go'zalligi, ayolning qadri+Sohibqiron qaragan*)

**Eslatma!** Quyidagi **so'zlarni<sup>4</sup>** izohi bilan yodlang!

- 1. Uchqun** – olov zarrasi;
- 2. Shu'la** – lipillab, ko'rinib-ko'rinmay turgan olov yoki yorug'lik;
- 3. Nur** – bir yo'nalishda yo'nalgan yorug'lik;
- 4. Ziyo** – bilim, ma'rifat;
- 5. Yog'du** - tumanday taraluvchi yorug'lik.

### **SO'Z BIRIKMASI VA SO'Z QO'SHILMASI, QO'SHMA SO'Z**

**Eslatma!** So'z birikmasi odatda so'z qo'shilmasi (teng bog'lanish) va qo'shma so'zga o'xshaydi. So'z birikmasi va so'z qo'shilmasi nutqda hosil qilinadi. Maslan, *kitobni o'qimoq, chiroyli gul – so'z birikmasi; kitob va daftар, ham boqiy, ham go'zal – so'z qo'shilmasi (teng bog'lanish)*. Qo'shma so'z nutq jarayonigacha mavjud bo'ladi. Shu boisdan u lug'atlarda aks etadi. *Bodomqovoq, qirqoyoq – qo'shma so'z.*

<sup>4</sup> Bu ma'lumot yangi nashrdagi 8-sinf ona tili darsligidan olindi. DTM testda tushadi shunday savollar.

**Eslatma!** Testlarda so‘z birikmasi va ibora (turg‘un bog‘lanma) gapda o’xshash shaklda uchrashi mumkin. Buni farqiga borish kerak. So‘z birikmasida so‘zlar alohida-alohida so‘roqqa javob bo‘ladi. Ibora esa bir tushunchani bildirgani uchun bitta so‘roqqa javob bo‘ladi.

*Qiyoslaymiz: Bu yuk hozircha omboming ichiga sig‘maydi. — Shu kunlarda Feruzaning sevinchi ichiga sig‘maydi.*

*Rais bu ishlarni qilishini qulog‘iga qo‘ydi — Ona dorini bolasining qulog‘iga qo‘ydi.*

## TASVIRIY IFODA

**Eslatma!** So‘zning so‘z birikmalari bilan ifodalangan ma’nolari ***tasviriy ifoda*** yoki ***parafrazlar*** deyiladi. Tasviriy ifodalar so‘zning ma’nosini oydinlashtirish, matnni badiiylshtirish, takrorning oldini olish kabi uslubiy vazifalarni bajaradi.

*M: Dala malikasi – makkijo ‘xori, Charm qo ‘lqop ustasi – bokschi; Bahor elchisi-boychechak, qaldirg‘och; Aql gimnastikasi –shaxmat.*

**Eslatma!** Quyidagi **so‘zlarni<sup>5</sup>** izohi bilan yodlang!

- 1. Lapar** – to‘y va yig‘in, xalq sayillarida yigitlar bilan qizlar orasida tarafma-taraf bo‘lib birgalikda ijro etiladigan qo‘shiq va raqs;
- 2. Baxil** – birovga hech narsani ravo ko‘rmaydigan; sarfxarajatni yoqtirmaydigan;
- 3. Saxiy** – birovdan narsasi, iliq so‘zi va mehrini ayamaydigan
- 4. Insof** – adolat va vijdon bilan ish tutish
- 5. Omonlashmoq** – salomlashmoq; vidolashmoq
- 6. Yo‘ymoq** - biror narsaning sababini o‘zicha taxmin qilmoq

## GAP BO’LAKLARI

**Eslatma!** Gapda so‘zlar o‘zaro grammatik munosabatga kirishib gap bo’laklarini hosil qiladi. Gap bo’laklari vazifasini mustaqil so‘zlargina bajaradi.

**Eslatma!** Gap bo’laklari 5 ta: ***Ega, kesim, to’ldiruvchi, aniqlovchi, hol.***

**Eslatma!** Testda *grammatik asoslar* so‘ralsa ***ega*** va ***kesim*** tushuniladi. Shuningdek, bular birinchi darajali gap bo’laklari deyiladi. Qolganlari (ya’ni to’ldiruvchi, aniqlovchi, hol) ikkinchi darajali gap bo’laklari deyiladi.

**Eslatma!** Gapning mazmuniy va grammatik markazi ***kesim*** hisoblanadi. Gapda kesimgina boshqa gap bo’laklariga nisbatlanmagan holda aniqlanadi. Qolgan bo’laklar esa kesimga nibatan aniqlanadi.

**Eslatma!** Gap bo’laklari kesimga ikki xil bog‘lanadi:

<sup>5</sup> Bu ma’lumot yangi nashrdagi 8-sinf ona tili darsligidan olindi. DTM testda tushadi shunday savollar.

**1. Bevosita (to'g'ridan-to'gri bog'lanadi).** (*Kesimga bog'lanadi*).

**2. Bilvosita (to'g'ridan to'g'ri emas).** (*Kesimdan boshqa gap bo'lagiga bog'lanadi*).

Agar gap bo'lagi kesimga bog'lansa bu **bevosita bog'lanish** hisoblanadi. Agarda kesimdan boshqa gap bo'lagiga bog'lansa, bu **bilvosita bog'lanish**(ya'ni boshqa bir bo'lak orqali) hisoblanadi.

*M: Dalada ko'p ishlagan odam uyida miriqib orom oladi.*

**Bevosita bog'lan bo'laklar – 3 ta** (*odam, uyida, miriqib*);

**Bilvosita bog'langan bo'lakalr – 3 ta** (*dalada, ko'p, ishlagan*).

**Mustahkamlash uchun:** Kesimga bevosita va bilvosita bog'langan gap bo'laklarini aniqlang.

1. *Insonning haqiqiy qadr-qimmati shundaki, uni hatto hasadchilar ham maqtashga majbur bo'ladilar.*

2. *Uquvsiz insonga qattiqko'llik bilan bilim yo hunar o'rgatib bo'lmaydi.*

3. *Odamlarni bir-biridan ajratadigan so'zni aytishdan saqlaning.*

4. *Derazaning ochiq tabaqasidan kirayotgan mayin shamol darpardani xomushgina silkitardi.*

**Eslatma!** Quyidagi **so'zlarni<sup>6</sup>** izohi bilan yodlang!

**1. Nazm** – she'riy shakldagi ijod.

**2. Tig'** – nayza, yoy kabi jang quroli;

**3. Shukrona** – Yaratgan bergen ne'mat uchun savob ish qilmoq

**4. Mutafakkir** – buyuk donishmand;

**5. Devon** – nazmiy asarlar to'plami

## **KESIM VA UNING IFODALANISHI**

**KESIM** – kesimlik ma'nolarini (*zamon, shaxs-son, mayl, bog'lama, tasdiq va inkor ma'nolarini*) ifoda etgan gapning markaziy bo'lagidir.

**Eslatma!** Kesimlik belgilari deganda **zamon, shaxs-son, mayl va bog'lama** tushuniladi. Bular maxsus shakl bilan yoki nol shakl bilan ifodalanishi mumkin. Kesimlik belgisi **predikativlik belgisi** ham deyiladi. Agar testda predikativlik belgisiga ega so'zlar so'ralsa **kesim** nazarda tutiladi.

**Eslatma!** Kesim so'roqlari: *Nima qildi? nima qilyapti? nima qilmoqchi? kimdir? nimadir? qayerdir? qanday? qancha? qaysi? nechta? nechanchi?* . Bu so'roqlarga javob bo'lувчи so'z kesim bo'lishi uchun gap oxirida kelgan bo'lishi kerak.

---

<sup>6</sup> Bu ma'lumot yangi nashrdagi 8-sinf ona tili darsligidan olindi. DTM testda tushadi shunday savollar.

Biz muzeyga bordik.

Akam talabadir.

**Eslatma!** Kesim qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishiga qarab ikkiga bo'linadi:

**1. Fe'l kesim** - sof fe'l va ba'zan ravishdosh bilan ifodalanadi. 1. *Hasad bilan g'azab ikki qanot bo'lib harakatga kelsa, toza va chiroyli hayotlarni xira va kuduratli qilib yuboradi.* (Abu Rayhon Beruniy) 2. *Ishning boshi – boshlanguncha.*

**Eslatma! –guncha** qo'shimchasini olgan ravishdoshgina kesim bo'lib kelishi mumkin.

**2. Ot-kesim** – Ot, sifat, son, olmosh, ravish, harakat nomi, modal, taqlid, undov bilan ifodalanadi.

- 1) ot bilan: *Axloqi zamimalarning eng zararligi hasaddur.* (A.Avloniy);
- 2) sifat bilan: *Usti yaltiroq, ichi qaltiroq.* (Maqol);
- 3) son bilan: *Ikki o'n besh – bir o'ttiz.* (Maqol);
- 4) olmosh bilan: *O'zim har joydaman, ko'nglim sandadur.* (Qo'shiq);
- 5) ravish bilan: *Savobning eshigi ko'p.* (Maqol);
- 6) modal so'z bilan: *So'zdan so'zning farqi bor, o'ttiz ikki narxi bor.* (Maqol);
- 7) harakat nomi bilan: *Burchimiz – a'lo o'qish;*
- 8) sifatdosh bilan: *Yigit kishining uyalgani – o'lgani; eman daraxtining egilgani – singani.* (Maqol);
- 9) taqlid so'z bilan: *Ko'chada odam g'ij-g'ij;*
- 10) undov so'z bilan: *Endi uning holiga voy.*

**Eslatma!** Fe'l kesim ish-harakatni, ot kesim predmetning turi yoki belgisini ifodalaydi.

## **SODDA KESIM VA MURAKKAB KESIM**

**Eslatma!** Kesimlar tuzilishiga ko'ra ikkiga bo'linadi: Sodda va murakkab kesim.

**1. Sodda kesim (Sodda ot kesim va soda fe'l kesim)** –kesim bitta so'z bilan ifodalanadi.

*M: Bolalar cho'milishdi. Men talabaman.*

**2. Murakkab kesim (Murakkab ot-kesim va murakkab fe'l kesim).**

## **MURAKKAB OT-KESIMNING IFODALANISHI:**

**I. Ot-kesim + edi, ekan, emish, erur, emas bog'lamalari yordamida.**

*U o'quvchi ekan. Ahvoli yaxshi ekan.*

**II. Ot-kesim + bo'lmoq, hisoblanmoq, sanalmoq.**

*U talaba hisoblanadi. U a'lochi sanaladi.*

**III. Harakat nomi + kerak, lozim, darkor, zarur, shart.**

*Bu masalani yechish kerak. Mehmonlarni kutib olish zarur.*

**IV.** Ba'zan murakkab kesimlar kengaygan birikmalar va iboralar bilan ifodalanishi ham mumkin. *Dadam qo'li ochiq edilar. O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. Ular besh kishidan iborat edi. Hamma gap – mening yo'qligimda.*

### MURAKKAB FE'L KESIMNING IFODALANISHI:

**I. Fe'l kesim + edi, ekan, emish, erur, emas to'liqsiz fe'li.**

*Xalq dushmani sifatida otib tashlangan edi. Uyimizdan yaxshilar sira uzilmas edi.*

**II. Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi murakkab fe'l kesim hisoblanadi.**

*U tez-yez xaxbar olib turardi. Unga fikringizni bildirib qo'ying.*

**III. Qo'shma fe'l ham murakkab fe'l kesim hisoblanadi.**

*Bir quchoq gul olib keldi. Yurtimiz obod bo'lmoqda.*

**IV. Kesim ibora bilan ifodalansa ham murakkab fe'l kesim hisoblanadi.**

*U bordaniga to'nini teskari kiyib oldi. Hosilni ko'rib boshi osmonga yetdi.*

**Eslatma! Quyidagi so'zlarni<sup>7</sup> izohi bilan yodlang!**

**1. Insho** – tashkil etish; yaratish, qurish, barpo qilish

**2. Bilim** – borliq haqidagi yoki ilmiy, madaniy, ma'rifiy, ma'naviy, harbiy va boshqa sohalarga oid nazariy, amaliy ma'lumotlar, tushunchalar majmuyi.

**3. Ko'nikma** – biror ishda orttirilgan malakadan kamroq tajriba;

**4. Malaka** – kasbni, ishni yaxshi o'zlashtirish natijasida orttirilgan ko'nikmadan balandroq mahorat;

**5. Tafakkur** - o'ylash, fikr yuritish

**6. Izlanish** - yangilik topish, yaratish harakatida bo'lish, shunday maqsadli harakat, faoliyat;

**7. Mas'uliyat** – biror ish, xatti-harakat oqibati, natijasi uchun bo'lgan javobgarlik

### OT-KESIM VA EGA ORASIDA TIRENING QO'LLANILISHI

**Eslatma! Quyidagi hokarda ot-kesim va ega orasida tire qo'yiladi:**

**1.** Ot-kesim kesimlik qo'shimchalarisiz yoki bog'lamasiz qo'llanilganda tire qo'yiladi: *Tinchlik —farovon hayot manbai. Hosilning otasi-suv, onasi-yer. Ukam – o'quvchi, Aziza – tikuvchi.*

**2.** Gapning egasi ham, kesimi ham bir xil so'z turkumiga oid bo'lib, kesim tarkibida bog'lama bo'lmasa tire qo'yiladi: *Uch karra uch – to'qqiz. Yaxshi – xunuk libosda ham yaxshi.*

<sup>7</sup> Bu ma'lumot yangi nashrdagi 8-sinf ona tili darsligidan olindi. DTM testda tushadi shunday savollar.

**3.** Gapning egasi, kesimi yo har ikkalasi harakat nomi bilan ifodalaniib, kesim tarkibida kesimlik qo'shimchasi yoki bog'lama bo'lma ganda tire qo'yiladi: *O'qish — ulg'ayish. Har narsaga qiziqish — biz uchun eski odat. Maqsadim — o'qimoq.*

**4.** Gapning egasi yo kesimi ko'rsatish olmoshi bo'lganda tire qo'yiladi: *Bu — siz uchun oliy sinovdir. Mening maqsadim — shu. Taniganim — shular.*

**5.** Eganing ma'nosi ta'kidlab ko'rsatilganda: *Men — mana shu minglarning biriman. Urush — quyon ovi emas. Sen — bizni ozod etuvchisan*

***Eslatma!*** Quyidagi **so'zlarni** izohi bilan yodlang!

**1. Muqarrar** – vujudga kelishi aniq, shubhasiz, turgan gap

**2. Chiston** – narsa yoki hodisaning muhim belgilarni tavsiflab, nimaligini topishni o'quvchiga havola etadigan she'riy shakl;

**3. Mantiq** – gap, fikr, harakat kabilarning aqlga monandligi, asosliligi

**4. Fasl** - vaqt, muddat, davr; yilning to'rtadan bir qismi; bo'lak, qism

## **OT-KESIM VA EGA ORASIDA TIRENING QO'LLANILMASLIGI**

***Eslatma!*** Quyidagi holatda ot-kesim va ega orasida tire qo'yilmaydi:

**1.** Ot-kesim tarkibida bog'lama bo'lsa tire qo'yilmaydi: *Akam uchuvchidir, Eshitganlarim haqiqat edi. Bu kata ahamiyatga ega hodisa hisoblanadi.*

**2.** Ot-kesim sifat, ravish va tartib sondan bo'lganda, ot-kesim va ega orasida tire qo'yilmaydi: *Vatanimiz go'zal. Qizilqum sahrosi bepoyon. Bu qovun shirin. Ko'ylyakning rangi sariq. Bizning sinfimiz sakkizinch. Uning orzulari ko'p.*

**3.** Agar ot-kesim ***bor, yo'q, kerak, lozim, darkor, zarur, shart*** modallar bilan ifodalansa tire qo'yilmaydi. *Uning aybi yo'q. Bolaga mehr kerak.*

**4.** Ega va ot-kesim o'rtasida ***ham, xuddi, go'yo, go'yoki, naq*** yuklamalari bo'lsa tire qo'yilmaydi. *Opasi ham tikuvchi, Vatanimiz xuddi jannat.*

**5.** Ot-kesim tarkibida **-mi, -chi, -a, -ya** so'roq yuklamalari bo'lsa tire qo'yilmaydi.

*Onasi – o'qituvchi. Onasi o'qituvchimi?*

***Eslatma!*** Kesim mustaqil yo nomustaql bo'lishi mumkin.

**1.** \_\_\_\_\_-sa\_\_\_\_\_. Qolipida –sa qo'shimchasini olgan fe'l ***nomustaql kesim hisoblanadi.*** *Yomg'ir yog'sa, cho'llar yashnaydi.*

**2. I.** \_\_\_\_\_-sa. *Yoki*

**II. -sa, -sa.** Qolipida –sa shart maylini olgan bo’lsa ham mustaqil kesim hisoblnadi. Chunki bu ikkita qolip orqali istak gap hosil bo’lyapti.  
*Qaniydi, do’stlar safi **kengaysa**. Toshkentga **borsam**, mustaqillik maydonini **ko’rsam**.*

**Eslatma!** Qolgan barcha ot-kesim va fe’l kesimlar mustaqil kesim hisoblanadi.  
*Biz ularni yaxshi **kutib oldik**. Baquvvat xotiraning mohiyati – **unutmaslik**.*

**Eslatma!** Quyidagi so’zлarni izohi bilan yodlang!

- 1. Madrasa** – sharq o’tmishida oliy ma’lumot beruvchi ta’lim muassasasi;
- 2. Mohir** - Yuksak mahoratga ega bo’lgan, mahorat qozongan.
- 3. Me’mor** – imorat qurilishini loyihalash bo‘yicha mutaxassis.
- 4. Poydevor** – bino devorlarining asos qismi;
- 5. Fursat** - vaqtning zum, damdan keyingi kichik qismlaridan biri
- 6. Boqiy** – abadiylikka ega
- 7. Oliy** - eng yuqori

### **EGA VA UNING IFODALANISHI**

**Eslatma!** Ega *kim? nima? qayer? kimlar? nimalar? qayerlar?* so’roqlariga javob bo’ladi. Doimo bosh kelishik shaklida bo’ladi, egalik va ko’plik shakllarini qabul qilishi mumkin. Ega barcha so’z turkumlari bilan ifodalanishi mumkin.

**Eslatma!** Ega bilan kesim shaxs va sonda moslashishi *ega va kesim moslashishi* deyiladi. *Men o’qidim. Sen o’qiding. U o’qidi. Biz o’qidik.*

**Eslatma!** Ega va kesim har doim shaxsda moslashgan bo’lishi kerak. Lekin ega bilan kesim sonda moslashmasligi mumkin. Bunday vaqtda ega *narsa* va *hayvon* bildiruvchi so’z bilan ifodalangan bo’ladi.

*Qushlar sayraydi. Kitoblar sochilib yotibdi.*

**Eslatma!** Gaplar eganing ishtirok etish yo etmasligiga ko’ra ikkiga bo’linadi:

**1. Egali gap** – Bunday gapda *kim? nima? qayer?* so’rog’iga javob bo’luvchi gap bo’lagi ishtirok etadi.

*M: Biz bugun Samarqandga jo’naymiz.*

**2. Egasiz gaplar** – Bunday gaplarda *kim? nima? qayer?* so’rog’iga javob bo’luvchi gap bo’lagi ishtirok etmaydi.

*M: Bugun Samarqandga jo’naymiz. Bugun Samarqandga jo’naladi.*

### **Egasiz gaplarning quyidagi turlari mavjud:**

**I. Shaxsi (egasi) ma’lum gap** – Kesimi I va II shaxs shaklida bo’ladi. Gapning egasini matndan, nutq sharoitidan, kesimning shaxs-son shakllaridan bilib olish mumkin.

*M: Yaqinda test sinovlaridan o'tamiz. Qachongacha qorningni o'ylab o'tadirsan? Topshiriqni bajardingmi?*

**II. Shaxsi (egasi) umumlashgan gaplar** – gapning umumiymazmuni barcha shaxslarga aloqador bo'ladi: *Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan. (Maqol) Boshingga qilich kelsa ham, to'g'ri gapir. (Maqol)* Bunda maqol va matallar, hikmatli so'zlar, odat tusiga kirgan rasm-rusumlarni bayon etuvchi gaplarda ega, asosan, umumlashgan bo'ladi. *Bugungi ishni ertaga qo'yma.*

**Eslatma!** Xonaga avval kirgan salom beradi. Yozda mehnat qilgan qishda rohatni ko'radi. Bilgan topib so'zlar, bilmagan qopib so'zlar – bular **egali gap** hisoblanadi.

**III. Shaxsi (egasi) noma'lum gap** – kesim fe'l bilan ifodalanadi va ish-harakatni bajarishga imkoniyat, zaruriyat, shart, tilak, istak kabi ma'nolarni ifodalab keladi. Bunday gaplar kesimining eng muhim belgisi – uning tarkibida egalik qo'shimchasining yo'qligi. Bu gaplar shaxssiz emas, harakatni mantiqan kimdir bajaradi, lekin uni gapda ifodalab bo'lmaydi.

**Shaxsi noma'lum gapni quyidagicha aniqlaymiz:**

**1.** Kesimi **harakat nomi+ kerak, lozim, darkor, zarur** bog'lamalari bilan ifodalanadi. Bunday gaplar kesimi tarkibida egalik qo'shimchasi bo'lmaydi. Agar egalik qo'llansa **shaxsi ma'lum gapga** aylanib qoladi.

*M: Vazifani bajarish kerak –shaxsi noma'lum gap.*

*(Vazifani bajarishim kerkak – shaxsi ma'lum gap).*

*Bu yerda o'rtoq Ergashevning hushyorligiga tan berish kerak.*

**2. Harakat nomi + -ga to'g'ri keladi** (egalik bo'lmasligi kerak) qolipi ham **shaxsi noma'lum gap** hisoblanadi. *M: Endi qattiq o'qishga to'g'ri keldi.*

**3. Ba'zan shaxsi noma'lum gapning kesimi majhul nisbatda bo'ladi.**

*M: Ba'zan manzilga shu yerdan boriladi. Yig'ilishda ta'lim samaradorligini oshirish haqida gapirildi.*

**Eslatma!** Suv quvurlari o'tkazildi. Matn yozildi. Hovli susrildi. Chiroqlar o'rnatildi – bular **egali gaplar** hisoblanadi.

**Eslatma!** Quyidagi **so'zlarni** izohi bilan yodlang!

**1. Malolat** – malol kelish; og'rinish;

**2. Sa'b** – qiyin, og'ir;

**3. Afgor** – xor bo'lish, ezg'in holatga tushish;

**4. Mi'odi** – muddat, ijro vaqt;

**5. Ko'shish** – sa'y-harakat;

**6. Nesh** – nish, tig;

- 7. Resh** – yara, jarohat.
- 8. Solik** – komillik sari harakat qilayotgan kishi
- 9. Takbiri fano** – o‘tkinchi dunyo uchun haqni ulug‘lash

***Eslatma!*** Atov gap va so‘z-gaplar ham shaxsi noma ’lum gaplardir.

**I. ATOV GAP** –so‘zlovchi ko‘z o‘ngida biror voqealari hodisani, narsa-buyum yoki davrni jonli gavdalantirishga, uning xotirasi yoki xayolida ular bilan aloqador bo‘lgan voqealari tiklashga xizmat qiluvchi muhim tasviri vositadir.

*M: Bahor. Kunlar iliqlashgan. Maktab. Yoshligimning oltin davri shu maskanda o’tdi. Amu-Buxoro kanali. Hayot suvini olib kelgan qudratli inshoot.*

***Eslatma!*** Atov gaplar bitta so‘zdan iborat bo‘lishi ham, aniqlovchilar bilan kengayib kelishi ham mumkin.

*M: Mehnat. Mehnatning tagi rohat.*

*Yam-yashil o’tov. Hulkar bu yerga kelsa quvonadi.*

*Qip-qizil saraton quyoshi. Jilmayib nur sochmoqda.*

***Eslatma!*** Hovli zim-ziyo. Ariqlardagi suv shildirab oqadi – bu atov gap emas, chunki ega va kesim munosabatida.

**II. SO‘Z-GAP** – Bir so‘z «qotib qolgan» birikma shaklida bo‘lib, boshqa so‘z bilan kengayish imkoniyatiga ega bo‘lmagan gap so‘z-gapdeyiladi. So‘z-gap tasdiq, inkor, so‘roq, taajjub, his-hayajon kabi ma’nolarni ifoda etib, ular matn bilan bog‘liq bo‘ladi. So‘z-gap, asosan, modal va his-hayajon munosabatlarini ifoda etgani uchun ham ko‘proq dialogik va ba’zan monologik nutqqa xosdir.

|                             |                                 |                                |
|-----------------------------|---------------------------------|--------------------------------|
| <i>M: - Siz o’qiysizmi?</i> | <i>- Sog’ligingiz yaxshimi?</i> | <i>- Ertaga uchrashamiz-a?</i> |
| <i>-Ha.</i>                 | <i>-Rahmat.</i>                 | <i>- Mayli.</i>                |

***Eslatma!*** Ha, ho’p, mayli, bo’pti, assalomu alaykum, marhamat, albatta, rahmat, yoqimli ishtaha, salomat bo’ling, qulluq, muborak bo’lsin, osh bo’lsin, yaxshi boring, xush ko’rdik, labbay, jomim bilan, bajonidil, barakalla kabilar so‘z-gap vazifasini bajaradi.

***Eslatma!*** Quyidagi so‘zlarni izohi bilan yodlang!

- 1. Ganj** - davlat, boylik, xazina;
- 2. G‘avvosliq** - suv tagida harakat qilish, suzish
- 3. Sayyor** – sayr qiluvchi, sayohatchi;
- 4. Tegishmoq** – tegajoqlik qilmoq;
- 5. Ahmoq** – bilib turib xato qiladigan kishi;
- 6. Karomat** – mo‘jizasimon holat;
- 7. Evaz** – o‘rniga, badaliga to‘lanadigan yoki olinadigan haq, narsa; badal

**8. Bashara** - xunuk ko‘rinishli, yoqimsiz qiyofa

## SODDA YIG’IQ VA SODDA YOYIQ GAPLAR

**Eslatma!** Agar gap faqat ega va kesimdan yoki faqat kesimdan iborat bo’lsa **soda yig’iq gap** deyiladi.

*M: Men o’qidim. Sen yozding. Kelding.*

**Eslatma!** Ega va kesimdan tashqari ikkinchi darajali gap bo’laklar(aniqlovchi, to’ldiruvchi, hol) bo’lsa **sodda yoyiq gap** deyiladi.

*M: Men bugun kitob o’qidim.*

## HOL VA UNING IFODALANISHI

Gapning kesimidan anglashilgan harakatning belgisini bildiruvchi gap bo’lagiga **hol** deyiladi. Holning ma’no turlari 6 guruhga bo’linadi:

**1. O’rin holi – *Qayerga? qayerda? qayerdan? qayergacha?***

**Muyilishgacha** kuzatib qo’ydim.

**2. Payt holi – *Qachon? qachongacha? qachondan beri? qachondan buyon? qay vaqt? qay payt?***

**O’sha kuni** hammasi ravshan bo’ldi.

**3. Vaziyat-ravish holi – *Qanday? Qay holda? Qay vaziyatda? Kim bo’lib?***

**Bola sekin** gapirdi. Onasi **shifokor bo’lib** ishlaydi.

**4. Sabab holi – *nima sababli? nima sababdan? nega? nima uchun?***

**Bola betobligi** uchun kelmadи.

**5. Maqsad holi – *nima maqsadda? nima qilgani? nima uchun? nega?***

**Biz o’qigani** kelganmiz.

**6. Miqdor holi – *Qancha? Qanchalab? Necha? Nechalab? Necha marta?.*** Bu so’roqlarni olgan so’z hol bo’lishi uchun fe’lga bog’lanishi kerak.

**Gazetamiz sport haqida ko’p yozadi.**

**Eslatma!** Hol har doim fe’lga bog’lanadi. Agar kesimga bog’lansa **mustaqil hol** deyiladi. Agar kesimdan boshqa gap bo’lagiga bog’lansa **nomustaqil hol** deyiladi.

*U hikoyani zavqlanib gapirdi. (mustaqil hol);*

Dalada ishlagan miriqib dam oladi. (nomustaql hol).

**Eslatma!** Hol tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. **Sodda hol** – bitta so'z bilan ifodalanadi: *U bugun keladi.*
2. **Murakkab hol** – ikki va unddan ortiq so'z bilan ifodalanadi. Ular 4 xil usul bilan hosil qilinadi:
  - I. Takror qo'llangan so'zlar orqali: *U masalaning muhumligini takror-takror ta'kidladi.*
  - II. So'z birikmalari: *Bundan besh yil ilgari shahrimiz boshqacha edi.*
  - III. Ibora bilan: *Ayol dunyodan ko'zi ochiq ketdi.*
  - IV. Kengaygan birikma bilan: *Urush boshlanganda u hali go'dak edi. Sharifa bilan Zarifa arazlashganda biz ularni yarashtirib qo'ydik.*

**Eslatma!** Sodda va murakkab hollarni aniqlang:

1. *Inson fe'l-atvorini to'g'riroq tushunish uchun boshqa vositalar bo'lmaganda uni ranjidigani hazildan foydalanish mumkin. (Lixtenberg)*
2. *Harakat inson qiyofasini ochib beruvchi eng aniq vositadir. Inson qanday harakat qilsa, o'shandaydir. (Gegel)*
3. *Insonning haqiqiy fe'l-atvori mayda-chuydalarda: ular inson o'zini nazorat qilishdan to'xtaganda yuzaga chiqadi. (A. Shopengauer)*
4. *Inson o'zga kishi oldida ayblariga iqror bo'lgach, ularni darhol unutadi. Ammo o'zga kishi uning ayblarini yodida saqlab qoladi. (Nitsshe)*
5. *Haddan ortiq yuksak fazilatlar ham ba'zan insonni jamiyat uchun yaroqsiz holga keltirib qo'yadi.*

**Eslatma!** O'rinni holi makon-zamon kelishiklari (**-ga**, **-da**, **-dan**) bilan ifodalanadi.

**Eslatma!** Sabab holi **-lik**, **-sizlik** + **-dan** chiqish kelishigi yoki **-gani sifatdoshi** + **sababli, tufayli, uchun** ko'makchilari yordamida ifodalanishi mumkin.

*M:Qul Tarlon shodligidan to'xtolmadi yig'idan. U yaxshi o'qigani uchun mukofotlandi.*

**Eslatma!** Hollardan o'rinni holi ot-kesimga bog'lanadi. *Toshkent Qarshidan katta.*

**Eslatma!** Quyidagi **so'zlarni** izohi bilan yodlang!

1. **Pili damon** – maqsad, mo'ljal
2. **Palang** – yo'lbars;
3. **Mo'ri lang** – cho'loq chumoli;
4. **Mash'uf** – afzal, tuzuk.

- 5. Kufr** – kofirlik, dindan qaytganlik;
- 6. Tama'** – istak, xohish;
- 7. Rohravg'a kesh** – yo'lovchi, maqsadga intilgan kishi.
- 8. Bandi rohe, besh** – yo'ldagi band, to'siq; monelik

## TO'LDIRUVCHI VA UNING IFODALANISHI

Gapning fe'l bilan ifodalangan biror bo'lagiga boshqaruv yo'li bilan bog'langan ikkinchi darajali gap bo'lagidir. To'ldiruvchi ikki xil bo'ladi:

- 1. Vositasiz to'ldiruvchi - *kimni? Nimani? Qayerni?*** So'roqlariga javob bo'ladi. Vositasiz toldiruvchi ham belgili va belgisiz qo'llanadi. -ni saqlansa belgili, -ni saqlanmasa belgisiz.

Men xatni o'qidim. – *belgili*    Men xat o'qidim. – *belgisiz*

- 2. Vositali to'ldiruvchi – *kimga? nimaga? kimda? nimada? kimsdan? nimadan?*** ***kim haqida? nima haqida? kim to'g'risida? nima to'g'risida? kim bilan? nima bilan?*** ***kim tomonidan? nima tomonidan? kim uchun?*** So'roqlariga javob bo'ladi.

Haqiqatni otasiga aytди.

Do'stida hujjatlarini qoldirgan.

Hammasini kitobdan o'qidim.

Sport haqida bahslashdik.

Ukam uchun sovg'a oldim.

**Eslatma!** To'ldiruvchi ko'pincha kesimga bog'lanadi, bunda ***mustaqil to'ldiruvchi*** deyiladi. Agar kesimdan boshqa bo'lakka bog'langan bo'lsa, ***nomustaqil to'ldiruvchi*** hisoblanadi.

O'g'lini jangga kuzatgan ayol buni yaxshi tushunadi.

**Eslatma!** To'ldiruvchi quyidagi so'zlar bilan ifodalanadi:

**Ot:** *Dilshod maktubni xolasiga berib, ko'chaga chiqib ketdi;*

**Olmosh:** *Mayli-da, kimgadir yoqsa, yoqmasa, ularga qo'shilib yig'lasharmidik.*

**Harakat nomi:** *Uning kulib boqishlarini bir zum ham unutmayman.*

**Otlashganda:**

**Sifat:** *Yaxshiga qora yuqmas, yomonga el boqmas;*

**Son:** *Beshni beshga qo'shsak, o'n bo'ladi;*

**Sifatdosh:** *Bilmagandan bilgan yaxshi, to'g'ri ishni qilgan yaxshi;*

**Taqlid so'z:** *Taqir-tuquringni yig'ishtir;*

**Undov so'z:** *Ohimni eshitmadi;*

**Eslatma!** To'ldiruvchilar kengaygan birikmalar bilan ifodalanishi mumkin.

M: *Uning go'zal siy whole qalbim ko'zgusini, visol porzusini, umidim gulshanini ko'rardim.*

*O'qituvchining mahorati u tarbiyalagan shogirtlarning bilimdonligi bilan o'lchanadi.*

*Bola bir guruh jangchilarni botqoqlikdan o'tkazib go'yganini aytdi.*

**Eslatma!** Quyidagi **so'zlarni** izohi bilan yodlang!

1. **Nahv** – tilning sintaktik qurilishi haqidagi soha;
2. **Johil** - o'qimagan, savodsiz kishi;
3. **Dovul** - yomg'ir aralash kuchli shamol
4. **Bo'ron** - kuchli shamol;
5. **Mahv** - daf qilish, yengish.

## ANIQLOVCHI VA UNING IFODALANISHI

Narsa-buyumning rang-tusi, mazasi, hajmi, kim yoki nimaga qarashliligini bildirib, gapning ot bilan ifodalangan bo'lagini aniqlab kelgan ikkinchi darajali bo'lak **aniqlovchi** deyiladi.

**Eslatma!** Aniqlovchi aniqlagan (bog'langan) gap bo'lagi **aniqlanmish** hisoblanadi. Masalan, *qizil olma* birikmasida – *qizil-aniqlovchi; olma-aniqlanmish*.

**Eslatma!** Faqat aniqlovchi gapda barcha gap bo'laklariga bog'lana oladi.

1. *Bahaybat samolyot shu yerga qo'nadi. (egaga bog'langan).*
2. *Ilg'or ishchilarga mukofot berildi. (to'ldiruvchiga bog'langan).*
3. *Yangi bog'da faxriylar bilan uchrashdik.*
4. *Salimjon – a'lachi o'quvchi*
5. *Yangi ko'ylakning yengi yirtildi.*

**Eslatma!** Aniqlovchi uchga bo'linadi:

1. **Sifatlovchi aniqlovchi;**
2. **Qaratqich aniqlovchi;**
3. **Izlohlovchi aniqlovchi**

1. **Qaratqich aniqlovchi** – *kimning? nimaning? qayerning?* so'roqlariga javob bo'ladi.

**Do'stимning kitobi yo'qoldi.**

**Eslatma!** Qaratqich aniqlovchi belgili va belgisiz qo'lllanishi mumkin. Agar –ning saqlansa belgili, saqlanmasa belgisiz.

**Maktabning hoylisini supurdik.** – belgili      **Maktab hoylisini supurdik.** -belgisiz

**Eslatma!** Qaratqich va qaralmish quyidagi munosabatda bo'lishi mumkin:

1. Qaratqich ham, qaralmish ham belgili: *Daraxtning bargi.*
2. Qaratqich belgisiz, qaralmish belgili: *Direktor xonasi.*
3. Qaratqich belgili, qaralmish belgisiz: *Bizning qishloq.*
4. Qaratqich ham, qaralmish ham belgisiz: *O'rik danak.*

## **2. Sifatlovchi aniqlovchi – qanday? qaysi? qancha? nechta? nechanchi? qayerdagi?**

Bu so'roqlarni olgan so'z aniqlovchi bo'lishi uchun gap boshi yo o'rtasida kelib otga bog'lanishi kerak.

Dukondan **qiziqarli** kitob **sotib oldim.**

**O'nta bolani chaqirtirdik.**      **Shu** **kitob menga yoqdi.**

**Bog'dagi** gullar ochildi.

**Eslatma!** Aniqlovchi otga bog'lanadi. (Sifatlovchi aniqlovchi har doim otga bog'lanadi). Ba'zan qaratqich aniqlovchi fe'lga bog'lanishi mumkin. Bunda otli birikma hisoblanadi. *Mening o'qishim o'zgargan.*

## **IZOHLOVCHI**

Aniqlovchining bir turi hisoblanadi. U shaxs yoki narsani boshqacha nom bilan aniqlaydi. Shaxsni boshqacha nom berish bilan aniqlaydigan bo'lakka ***izohlovchi aniqlovchi*** deyiladi. Izohlovchi ot so'z turkumiga mansub bo'ladi. Izohlovchi bog'langan bo'lak izohlanmish deyiladi.

*Akademik Habib Abdullayev. Oshpaz Shukur. Gulchi Nodira. Mayor Ahmedov.*

**Eslatma!** Izohlovchi shaxsning ***millatini, kasb-korini, nasl-nasabini, unvonini, laqabini, yoshini, qarindoshligini va jinsini*** bildirib keladi.

*M: Kapitan Mansurov, Direktor Rahimov, duradgor Vahob.*

**Eslatma!** Izohlovchi va izohlanmish gapda bitta tahlil qilinadi.

**Shoira Zulfiya ulug'lanadi.**

**Eslatma!** Agar izohlovchi *taxallus* va *o'xshatish* ma'nolarini bildirsa izohlovchi va izohlanmish o'rtasida tire qo'yiladi.

*M: Erk kuychisi – A.Cho'lpon she'rclarini o'qing.*

**Eslatma!** Izohlovchi bilan izohlanmish o'rni o'zgarsa ma'noga ta'sir qilmaydi.

*M: Oshpaz Shukurov – Shukurov oshpaz.*

**Eslatma!** Agar izohlovchi jinsni ifodalasa, o’rin o’zgarganda ma’no o’zgarishi mumkin. Ayol hamshira – (*ayol – izohlovchi, hamshira – izohlanmish*) Hamshira ayol – (*hamshira – izohlovchi, ayol – izohlanmish*).

**Eslatma!** Quyidagi so’zlarni izohi bilan yodlang!

- 1. Hilm** - muloyimlik, halimlik
- 2. Axloq** – xulqning arab tilidagi ko‘plik shakli
- 3. Milh** - tuz;
- 4. Xulq** - kishining o‘zini tutishi, ma’naviy qiyofasi;
- 5. Qovog‘ini solmoq** - achchiqlanib qoshini chimirib olmoq;
- 6. O‘rlamoq** – balandga ko‘tarilmoq;
- 7. Xomush bo‘lmoq** - g‘amgin holatga tushmoq;
- 8. Kirdikor** - yashirib qilingan noto‘g‘ri ishlar;
- 9. O‘zini bosmoq** - hayajon holatida o‘zini tutmoq;
- 10. Langar** - qirg‘oqqa tashlanib, kemani ushlab turadigan moslama
- 11. Munofiq** - so‘zi va amali bir bo‘lmagan kishi

## GAP BO’LAKLARI TARTIBI

O’zbek tilida gap bo’laklarining joylashish tartibi, asosan, erkin bo’ladi. O’zbek tilida gap bo’laklarining odatdagi (oddiy) tartibi ham bor. Unga ko’ra, ega gap boshida, kesim gap oxirida keladi. *Aniqlovchi* egadan oldin, *hol va to’ldiruvchi* kesimdan oldin kelishi bu ***me’yoriy tartib*** deyiladi. Bu *ilmiy* va *rasmiy* uslubga xos.

*Aniqlovchi ega to’ldiruvchi hol kesim. Shu kitob menga juda yoqadi.*

**Eslatma!** Ba’zan gap bo’laklari tartibi o’zgarishi mumkin. Bu o’zgargan tartib yoki ***inversiya hodisasi*** deyiladi. Bu *so’zlashuv* va *badiiy* (ayniqsa, she’riy) uslubga xos.

*Men nechun sevaman O’zbekistonni. (To’ldiruvchi va kesim)*

*Shovulladi kun bo’yi shamol (ega va kesim)*

*Shivirlading yonimda xushhol (kesim)*

*Men kitobni o’qidim zavq bilan. (hol)*

**Eslatma!** Ma’noni kuchaytirish uchun muhim bo’lak kesimning oldiga o’tkaziladi. Masalan:

1. Kecha akam samolyotda Farg‘onadan **Toshkentga** ketdi. (boshqa yerga emas, Toshkentga).

- 2.** Kecha akam samolyotda Toshkentga **Farg‘onadan** ketdi (boshqa yerdan emas, Farg‘onadan).
- 3.** Kecha akam Farg‘onadan Toshkentga **samolyotda** ketdi (boshqa narsada emas, samolyotda).
- 4.** Kecha samolyotda Farg‘onadan Toshkentga **akam** ketdi. (boshqa kishi emas, akam).
- 5.** Akam samolyotda Farg‘onadan Toshkentga **kecha** ketdi. (boshqa kuni emas, kecha).

### GAP URG‘USI

Gapda so‘zlovchi tomonidan alohida ahamiyat berilib, ta’kidlab ko‘rsatilgan bo‘lakning kuchli ohang bilan aytilishi **gap urg‘usi** (yoki **mantiqiy urg‘u**) deyiladi.

**Eslatma!** Gap urg‘usi talaffuzda ixtiyoriy bo’ladi. Matnda esa kesimdan oldingi so’zga tushadi. (*Gap urg‘usi=logik urg‘u=frazaviy urg‘u=mantiqiy urg‘u*).

- 1. Kecha muzeyga **biz** bordik (biz bordik).*
- 2. Biz muzeyga **kecha** bordi .(kecha bordik).*
- 3. Biz kecha **muzeyga** bordik (muzeyga bordik).*

**Eslatma!** Kesim mantiqiy urg‘u (gap urg‘usi)ni olganda o’rni o’zgaradi.

**Bordik biz Samarqandga kecha (bordik).**

**Eslatma!** Quyidagi **so’zlarni** izohi bilan yodlang!

- 1. Jo‘yali** – o‘rinli, muvofiq;
- 2. Kerik** – orasi ochilgan; teshiklari katta;
- 3. Siyrat** - odamning ichki olami, ruhiy dunyosi;
- 4. Javraqi** - yoqimsiz gaplarni ko‘p gapi radigan;
- 5. Mag‘rib** - kunbotish tomon, g‘arb;
- 6. Notob** - tobi qochgan, kasallangan.

### TO’LIQ VA TO’LIQSIZ GAPLAR

**Eslatma!** Fikr ifodalash uchun kerak bo‘lgan barcha bo‘laklar ishtirok etgan gaplar **to’liq gaplar** deyiladi. Tushirilgan bo‘laklari oldingi gaplardan anglashilib turadigan gap **to’liqsiz gap (elleptik gaplar)** deyiladi.

**Eslatma!** To’liq va to’liqsiz gaplar faqat diolog shaklida namoyon bo’ladi.

**Eslatma!** To’liqisiz gaplar uchun zaruriy, umumiylar qonuniyatlar xos emas, ya’ni qaysi bo‘lakning tushirilishi yo qoldirilishi kerakligini faqat nutq jarayoni belgilab beradi.

- *Siz gulni kimga oldingiz?*
- *Men gulni onamga oldim. (to’liq gap).*
- *Onamga terdim. (to’liqsiz gap).*
- *Onamga. (to’liqsiz gap).*

**Eslatma!** Ba'zan qo'shma gaplarning ikkinchi qismida kesim tushib qolishi mumkin. Bunday vaqtda ikkinchi qismdagi so'zdan oldin tire qo'yiladi va bu ham ***to'liqsiz gap*** hisoblanadi.

*Olamni quyosh yoritadi, insonni – ilm.*

*Daryoning suvini bahor toshiradi, insonning aqlini – bilim.*

**Eslatma!** Agar diologlarda ***ha, yo'q, albatta, bo'pti, rahmat, mayli*** singari so'zlar javob bo'lib kelib nuqta qo'yilsa ***so'z-gap*** hisoblanadi. Agar vergul qo'yilib gap davom ettirilsa ***to'liqsiz gap*** hisoblanadi.

- *Siz ham marosimga borasizmi?*
- *Ha. – Yo'q - so'z-gap.*
- *Ha, boraman. – to'liqsiz gap.*

**Eslatma!** Quyidagi ***so'zlarni*** izohi bilan yodlang!

**Dongdor** – shuhrat qozongan, dovrug'i ketgan;

**Hujra** – madrasa, qorixona va masjidda shogirdlar, domlalar yashashi uchun ajratilgan kichik xona(lar); odam yashaydigan kichik xona;

**Kigiz** – jundan bosib (presslab) tayyorlanadigan qalin, pishiq palos, namat;

**Valine'mat** - o'ziga qaram kishilarni moddiy jihatdan ta'minlab turuvchi, ularga ne'mat beruvchi shaxs;

**Mustabid** – mutlaq hukmronlikka ega bo'lgan hokim, istibdod egasi;

**Mahram** – ishonchli xizmatkor, do'st;

**Xo'jazoda** – xo'jayinning o'g'li; asilzoda kishining farzandi;

**Muqaddima** – bir ish, narsa, matnning boshi;

**Xiroj** – diniy soliq;

**Devon** – tashkilotning yozishmalar amalga oshiriladigan bo'limi;

**Zakot** – diniy soliq;

**Qushbegi** - o'tmishda hukumat boshlig'i.

## UYUSHIQ BO'LAKLI GAPLAR

Gap tarkibida ikki va undan ortiq bir turdag'i bo'laklar uyushib kelishi mumkin. Ular bir xil so'roqqa javob bo'ladi, bir xil grammatik shaklda (kelishik, egalik, ko'makchi va ko'plik) bo'ladi va bir xil gap bo'lagi vazifasida kelib, gapning bitta bo'lagiga tobelanib keladi. Masalan, ***Bola goh menga, goh unga qarar edi.***

**Eslatma!** Gapning barcha bo'lagi uyushadi:

- 1) uyushiq ega:** *Bugun Anvar yoki Sobir navbatchilik qiladi;*
- 2) uyushiq kesim:** *U asta joyiga o'tirib, gapira boshladi. Yo'l kang va tekis edi;*

**3) uyushiq to‘ldiruvchi:** *Kitob va daftarlarni keltirdi. Akamga va opamga xabar qildik.*

**4) uyushiq aniqlovchi:** *Salqin va bahavo bog‘da dam oldik. Olma(ning) va shaftolining hosili mo‘l bo‘ldi;*

**5) uyushiq hol:** *Topshiriqni tez va puxta bajardik. Bugun va ertaga man navbatchilik qilaman. Shahar va qishloqda qurilish avjiga chiqqan. Quvonch va shodlikdan tili aylanmas edi(sabab holi uyushgan: shodlikdan-nima sabadan?). U shaharga o‘qish va ishslash maqsadida kelgan edi. Men sizga o‘n marta, yuz marta gapirdim.*

**Eslatma!** Uyushiq bo‘lakda ko‘plik, egalik va kelishik qo‘shimchasi qo‘llanishi ikki xil:

**1)** ko‘plik, egalik va kelishik qo‘shimchasi uyushiq bo‘lakning oxirgisiga qo‘shilib, barchasiga tegishli bo‘ladi:

*Noma va arizalarning ba‘zisi mirzo, muftilarga havola qilinar edi;*

**2)** gapdagи uyushiq bo‘lakning har birida son, egalik, kelishik qo‘shimchasi qo‘shilishi ham mumkin: Qor sovug‘i qo‘llarimni va oyoqlarimni, peshonamni yalab tursada, menga juda yoqimli tuyuldi.

**Eslatma!** Gapning uyushiq bo‘lagi guruh-guruh bo‘lsa, bir-biridan nuqtali vergul bilan ajratiladi:

Yutib chiqish uchun ot **chopqir**, **zotdor bo‘lishi** va yaxshi **toblanib sovitilishi**; chavandoz **usta**, **epchil bo‘lishi karak**

**Eslatma!** Agar uyushiq bo‘laklar ikkidan ortiq bo‘lsa **va, hamda, bilan** bog’lovchilari uyushiq bo‘laklarining oxirgi juftligi orasida keladi va sanashning tugaganligini bildiradi.

*M:Bog’imizda o’rik, shaftoli, gilos va olmalar bor.*

**Eslatma!** **Va, hamda, bilan, -u, -yu** bog’lovchilari uyushiq bo‘laklar ot so‘z turkumiga mansub bo‘lsa, ular o‘zaro almashadi. Agar fe’l so‘z turkumiga mansub bo‘lsa **bilan** bog’lovchisini qo‘llab bo‘lmaydi.

*Anvar va Akmal;*

*Keldi va ketdi*

*Anvar-u Akmal;*

*Keldi-yu ketdi*

*Anvar hamda Akmal;*

*Keldi hamda ketdi*

*Anvar bilan Akmal;*

*Keldi bilan ketdi*

**Eslatma!** **Yo, yo ... yo, yoki** bog’lovchilari uyushgan bo‘laklardan birini tasdiqlab, ikkinchisini inkor etib bog’laydi. **Yo kitob, yo daftar olaman.**

**Eslatma!** *Ba'zan ... ba'zan, dam ... dam, goh ... goh* bog'lovchilari uyushiq bo'laklarning navbatma-navbatligini ifodalaydi.

*Dam qor, dam yomg'ir yog'adi.*

**Eslatma!** *Ammo, lekin, biroq* bog'lovchilari zidlik munosabatida bo'lgan uyushiq bo'laklarni ifodalaydi. *Ovozi bo'g'iq, ammo yoqimli edi.*

**Eslatma!** Kesim uyushishi uchun kesimlik shakllari (zamon, shaxs-son, mayl, tasdiq-inkor shakllari, bog'lama va ko'makchi fe'llar) eng oxirgi kesimga qo'shilishi kerak. Agar har biriga qo'shilgan bo'lsa *qo'shma gap* bo'lib qoladi.

*M: Jinoyat sodir etilgan joyni ko'rishimiz, tekshirishimiz kerak – uyushiq kesim.*

*(Jinoyat sodir etilgan joyni ko'rishimiz kerak, tekshirishimiz kerak – qo'shma gap).*

**Eslatma!** Hollar uyishishi uchun bir xil mazmun-munosabatni ifodalashi kerak.

*M: Osmonda, daraxtlarda, tomlarda chumchuqlar chirillaaydi.*

**Eslatma!** Ba'zan uyushiq hollar har xil so'z turkumiga mansub bo'lishi mumkin.

*M: U hayajon bilan, tez-tez, bo'g'ilib so'zlardi.*

*Podsho dam kulib, dam jiddiy, dam o'y bilan qulq soldi.*

**Eslatma!** Uyushiq aniqlovchilar ba'zan bir predmening turli xil belgilarini bildirishi mumkin.

*M: Chaqaloq kichkina, oppoq va dumaloq qo'llarini cho'zdi.*

**Eslatma!** Ba'zan bir xil gap bo'lagi ketma-ket kelib uyushmasligi mumkim. Ketma-ket kelgan, lekin sanash ohangi bilan aytilmaydigan, yozuvda orasiga vergul qo'yilmaydigan aniqlovchi va hol **uyushmagan aniqlovchi** va **uyushmagan hol** hisoblanadi. Uyushmagan aniqlovchi va uyushmagan hol o'zi bog'langan bo'lakning turli tomoniga oid belgini anglatadi:

**Qop-qora shirin**(uyushmagan aniqlovchi) *uzum g'arq pishgan. Kecha kechqurun* (uyushmagan hol) *yomg'ir yog'di. Bugun tushdan keyin* (uyushmagan hol) *boramiz.*

**Eslatma!** Ba'zan uyushiq qaratqich aniqlovchilarda **-ning** qo'shimchasi har bir bo'lakka qo'shilishi mumkin, yoki uyushiq bo'laklarning eng oxiriga qo'shilishi mumkin.

*M: To'lqinning, Ozodaning va Shoiraning ukalari o'qiydi.*

*To'lqin, Ozoda va Shoiraning ukalari o'qiydi.*

**Eslatma!**

**Musofir** – safardagi kishi;

**Mijja** – uyqusiz holda bo'lish ;

**Qoqmay** – boshi berk;

**Jin (ko'cha)** – faqat odam yura oladigan tor

## UYUSHIQ BOLAKLI GAPLARDA UMUMLASHTIRUVCHI SO'Z VA TINISH BELGILARINING ISHLATILISHI

Gapda uyushiq bo'laklarni jamlovchi, umumlashtiruvchi so'z bo'lishi mumkin. Ko'pincha, belgilash, bo'lishsizlik olmoshi va jamlovchi ot, jamlovchi son, shuningdek, so'z birikmasi, kengaygan birikma umumlashtiruvchi so'z bo'lib keladi:

*Uylar, daraxtlar, ko'chalar – hammasi qorong 'ilik qa'riga cho'mdi.*

*Ishga yangi qabul qilinganlar: Ahmad, Salim va Akbar boshliqning oldiga kirishsin.*

**Eslatma!** Uyushiq bo'laklar va umumlashtiruvchi so'z bir xil grammatik shaklda bo'ladi va bir xil so'roqqa javob bo'lib, bir xil gap bo'lagi vazifasida keladi.


*Bog'dan mevalarni: olma, anor va shaftolini terib oldik.*

**Eslatma!** Umumlashtiruvchi so'z uyushiq bo'laklardan oldin kelssa undan so'ng ikki nuqta qo'yiladi. Agar uyushiq bo'laklardan keyin kelsa, undan oldin tire (-) qo'yiladi.


1. - mumlashtiruvchi so'z.

2. - uyushiq bo'lak.

3. - hokim bo'lak.




*Daraxtdagi barcha sayroqi qushlar: sa'va, bulbul, mayna unga jo'r bo'lishdi.*




*Afrikalik, bog'dodlik, misrlik, hindlik va xitoylik – hamma sayyoohlarga bu shahar manzur keldi.*

**Eslatma!** Umumlashtiruvchi so'z uyushiq bo'laklardan oldin kelib, ular o'rtasida kirish so'z qo'llansa, kirish so'zdan oldin vergul, keyin ikki nuqta qo'yiladi.



*Sayohatga hamma narsalarni, masalan: qozon-tavoqni, idishlarni, soyabonni oldik.*

**Eslatma!** Agar umumlashtiruvchi so'z uyushiq bo'laklardan keyin kelib ular orasida kirish so'z qo'llansa, kirish so'zdan oldin tire, keyin vergul qo'yiladi.



*U farzandlaini ham, nevaralarini ham, qo'shni o'g'il-qizlarni ham, begona bolalarni ham – xullas, barchani sizlab gapirardilar.*

**Eslatma!** Agar uyushiq bo'laklar guruuh-guruuh bo'lib kelsa, bu guruuhlar bir-biridan nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

*M: Bog'imizda qovun, handalak; olma, o'rik, shaftoli pishib yotibdi.*

*Ovga kirishadigan sohibchangal qushlardan: qarchig'ay, miqqiy, qirg'iy; urishadigan qushlardan: dakan xo'roz, oddiy xo'roz, amirxon xo'roz, kaklik, bedana (bu so'nggi ikkisi sayrash uchun ham boqilib, cho'pqafasda, to'rqaqfasda saqlanadi); sayraydiganlardan: qumri, sa'va, bulbul, mayna va boshqalar.*

**Eslatma!** Quyidagi so'zlarni izohi bilan yodlang!

**Choshnagir** – ayollarga hurmat yuzasidan murojaat qilganda qo'llanadigan so'z

**Qandil** – yoqish uchun shamlar solib ilib qo'yiladigan uy johozi;

**Koshin** – chinniga o'xshatib ishlangan, yaltiroq, naqshli g'isht plitkasi;

**Bakovul** – podshoh, xon va lashkarga ovqat tayyorlash ustidan nazorat olib boruvchi, bosh oshpaz

**Mo'ysafid** – yoshi o'tib qolgan kishi;

**Muchang** – oyoq, qo'l, tana va bosh a'zolari

**Mirzo** – o'zgalar orasida eng oldi, sarasi

**Ilik** – qo'l;

**Mo'tabar** – ulug', aziz;

**Nizo qilsa** – ziddiyatda bo'lmoq

## AJRATILGAN BO'LAKLI GAPLAR

Gapda biror bo'lakning ma'nosi so'zlovchi nazarida noaniqroq bo'ladi va uning ma'nosini aniqroq berish, izohlash maqsadida xuddi shunday boshqa bo'lakni gapga kiritadi. Masalan, **Men ishni mana shundan boshladim** gapida **shundan** to'ldiruvchisining ma'nosi noaniq. Shuning uchun so'zlovchi aniqroq ma'noli boshqa bir to'ldiruvchini gapga kiritadi: **Men ishni mana shundan, ya'ni tushuntirishdan, boshladim. (tushuntirishdan-ajratilgan bo'lak).**

**Eslatma!** Gap tarkibida ma'lum bo'lakning ma'nosini ta'kidlab, izohlab keluvchi, boshqa gap bo'laklaridan to'xtam va ohang jihatdan ajratilib turuvchi bo'laklar **ajratilgan bo'laklar** deyiladi. Shunday bo'lakli gaplar esa **ajratilgan bo'lakli gaplar** deyiladi. Barcha gap bo'laklari ajratilishi mumkin.

**1) ajratilgan to‘ldiruvchi:** *Oyimni, ya’ni Xosiyat Suvonovani, mukofotlashdi.*

**2) ajratilgan aniqlovchi:** *Qobil bobo, yalangbosh, yalangoyoq, eshik yonida dag ‘-dag ‘ titraydi.*

**3) ajratilgan hol:** *Uning qo‘lidan ushlab ichkariga, mehmonxonaga, boshladi; Anjuman bugun, soat beshda, boshlanadi; Bugun sizni yana, ikkinchi marta, kechirishdi.*

**4) ajratilgan izohlovchi:** Ajratilgan izohlovchilar ko’pincha egaga taalluqli bo’ladi.

*M: O’g’lim, qo’zichog’im, orom olib uxlayapti. Hasan aka, fizika o’qituvchisi, kirib keldi.*

**Eslatma!** Ajratilgan bo’laklar uyushiq bo’laklardan farqi shundaki, ajratilgan bo’laklarda izohlash ma’nosi bo’ladi va tinish belgilari bilan ham farq qiladi.

*Bugundan, 13-maydan, final musobaqalariga tayyorlanamiz.*

**Eslatma!** Ajratilgan bo’lak har doim o’zi izohlayotgan bo’lakdan keyin keladi. Ajratilgan bo’laklar boshqa bo’laklardan **vergul**, **tire** ba’zan **qavs** bilan ham ajratilishi mumkin:

**1)** bo’lak ikki tomondan vergul bilan ajratiladi: *Soy bo‘yidagi choyxonada, gavjum joyda, Azimjon uchradi*

**2)** ajratilgan bo‘lakning o‘z ichida vergul bo‘lsa, ikki tomoniga tire qo‘yiladi: *Ekranda Yer tasviri ko‘rindi; daraxtlar gullagan, pag‘a-pag‘a oq bulutli osmon yer bilan qo‘shilib ketganday – osmon aksi yerga tushyaptimi, yo aksinchami – bilib bo‘lmaydi.*

**3)** ajratilgan bo’lak uyushib, gap oxirida kelsa, undan oldin tire qo‘yiladi: *Mening o‘z muhabbatim bor –toza va musaffo!*

**4)** ba’zan ajratilgan bo’lak qavs bilan ham ajratiladi: *Ichki idrok amriga bo‘ysunsang, katta inson bo‘lasan, ikkinchi darajali (ya’ni, ko‘z va qulqoq sezgilar) tuyg‘ularga amal qilsang, mayda odamga aylanasan.*

**Eslatma!** Quyidagi **so’zlarni** izohi bilan yodlang!

**Bakovul** – podshoh, xon va lashkarga ovqat tayyorlash ustidan nazorat olib boruvchi, bosh oshpaz

**Shig‘ovul** – Buxoro va Xiva xonliklarida elchilarni kutib olish, xon huzuriga olib kirish, saroydagi qabul marosimlarini boshqarish va nazorat qilish bilan shug‘ullangan shaxs;

**Salom og‘asi** – xon va amirning huzuriga ish va arz bilan kelganlar haqida xon, amirga xabar beruvchi va xon, amirning javobini ularga yetkazuvchi amaldor

**Dodxo** – Buxoro xonligidaadolat, haq-huquq istovchilardan amir nomiga ariza qabul qiluvchi va uning javobini arzchilarga yetkazuvchi lavozimli kishi

**Ponsadboshi** – Qo‘qon xonligida qozixona ishlari ustidan nazorat olib boruvchi amaldor;

**Hudaychi** – amir, xon saroyida rasmiy marosimlarga boshchilik qilib, uni nazorat qilib turgan lavozimli shaxs.

**Eslatma!** Ajratilgan bo‘laklar nima maqsadda qo‘llanayotganligiga ko‘ra ikki guruhga ajratiladi:

**1. Izohlash orqali gap bo’lagini ajratish**– Bunda bir nom boshqacha nomlanadi. Ma’lum bir bo‘lakning umumiylarini izohlash, tushunarsiz ma’nosini tushuntirish uchun uning yonidan aniqroq ma’noni bildiruvchi so’z keltiriladi.

*Lingvistika – tilshunoslik mening sevgan fanim bo’ladi.*

*Bog’chadagi do’stimni – Qodirni ko’rib qoldim.*

*Shu farzandimni – ko’zim qarosini el ardog’ida bo’lishini xohlayman.*

**Eslatma!** Izohlash orqali barcha gap bo‘laklarini ajratish mumkin.

**2. Tartibni o’zgartirish orqali gap bo’lagini ajratish** – Bunda ma’lum bir bo‘lakning ma’nosini ta’kidlanadi. Tartibni o’zgartirish orqali gap bo’lagi ajratilganda, asosan, *sifatlovchi aniqlovchi* ba’zan *hol* ajratilgan bo’ladi. Aniqlovchi va hol o’zi aniqlab kelayotgan so’zdan keyinga o’tadi.

*Bu o’zbek yigit – tanti, mehribon. (Bu tanti mekribon o’zbek yigit edi)*

*Shunday yashar – sokin, bezavol, pastakkina tandiri bilan kata uyda kichkina bir chol.*

**Eslatma!** Agar ajratilgan sifatlovchi aniqlovchilar uyushib, gap oxirida kelsa, boshqa bo‘laklardan *tire* bilan ajratiladi.

*Kuz guli – rangi o’chgan, umri kechgan. (Rangi o’chgan, umri kechgan kuz guli)*

*Qozoq sahrosi — bu beedad sahro, xayolday bepoyon, cheksiz va yiroq.*

*Zamona Barchini — mehnatkash, dildor.*

**Eslatma!** Aniqlovchi yo hol ajratilganligini bilish uchun ajratilgan bo‘laklarni o’zidan oldingi so’zga bog’lash kerak. O’zidan oldingi so’z ot bo’lsa *aniqlovchi* ajratilgan bo’ladi, agar fe’l bo’lsa *hol* ajratilgan bo’ladi.

*Bir zum dengizga ham boqqil – betuyg’u.*

*Qo’llarim ko’simda – betoqat, betinch.*

**Eslatma!** Ajratilgan bo‘lak qaysi gap bo’lagining so’rog’iga javob bo’lsa, o’sha gap bo’lagining nomi bilan ataladi.

*Biz, sizning do'stлaringiz, indamay turarmidik. (kim? ega).*

Bektemirga, sobiq cho'ponga, komandirning gapi yoqmadidi. (kimga? **To'ldiruvchi**).

***Eslatma!*** Quyidagi **so'zlarni** izohi bilan yodlang!

**Navozish** – sozanda;

**Nazarkarda** – ulug‘ kishilarning nazari tushgan;

**Nabi** – xudoning xabarini yetkazuvchi;

**Nabotot** – o‘simpliklar dunyosi;

**Navozanda** – kuy ijro etuvchi, navo qiluvchi.

## **GAP BO'LAKLARI BILAN ALOQAGA KIRISHMAYDIGAN BO'LAKLAR**

Aloqaga kirishmaydigan bo'laklar deganda gapning boshqa bo'laklar bilan grammatik jihatdan bog'lanmaydigan bo'laklar tushuniladi. Bunday bo'lak so'roqqa javob bo'lmaydi, gapning boshqa bo'laklaridan *vergul* yoki *qavs* bilan ajratiladi.

***Eslatma!*** Ular uch guruhgaga bo'linadi:

**1. Undalmalar.**

**2. Kiritmalar (*kirish so'zlar = modallar*)**

**3. Kiritma gaplar**

*M: Do'stim, bu asarni o'qib chiq. (undalma).*

*Xullas, bu masala qaytib ochilmadi. (kirish so'z).*

*Musobaqada Rahimberdi (siz uni taniysiz) peshqadamlik qilmoqda. (kiritma gap).*

### **UNDALMA**

**Undalma** – so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsni yoki narsa. Undalmalar ham ega singari bosh kelishikda qo'llaniladi, ammo ega grammatik jihatdan gapda kesim bilan bog'lanadi, undalmalar esa grammatik jihatdan hech bir bo'lakka bog'lanmaydi.

*Qizim, senga kitob olib keldim.*

***Eslatma!*** Undalmali gaplarning kesimi, ko'pincha *birinchi* va *ikkinchi shaxs-son shakllarida* bo'ladi.

*M: Inim, kitoblarni sandiqlarga joylashtiravering.*

*O'quvchilar, dam olish kunini ko'ngilli o'tkazaylik.*

***Eslatma!*** Undalma alohida ohang bilan ajratilib aytildi. Undalma gapda vergul bilan ajratiladi. Gap boshida undan so'ng, o'rtasida ikki tomondan, oxirida undan oldin verul qo'yildi.

*Onajonim, bir kun aytganingday bo'lar to'y.*

*Biz Xorazmda, Ma'mun ibn Ma'mun saroyida besh yil birga xizmat qilganmiz, begin*

**Eslatma!** Undalmalar ba'zan jonivorlar yoki jonsiz narsalarga ham qaratiladi: **Qarg'avoy**, men seni yeymen. (Ertakdan)  
Seni unutolmas yuragim aslo, ey **O'rta Osiyo, O'rta Osiyo.**

**Eslatma!** Undalmalar uyushib kelishi ham mumkin: **Muhtaram otalar, onalar, kelinlar, o'g'llar, opa-singillar, sizga shu haqda murojaat qilamiz** kabi.

**Eslatma!** So'zlovchi tinglovchining diqqatini nutq jarayoniga jalb qilishni maqsad qilib olsa, u vaqtida undalma gap boshida keladi.

**Eslatma!** Agar undalma gap o'rtasida yoki oxirida kelsa tinglovchiga nisbatan *subyektiv munosabat* ifodalangan bo'ladi.

*M: Nechun kerak, rubob, senga shuncha g'am,  
Gar shul eshitganim bo'lmasa ro'yo.  
Sen beshik emassa, dorsan, tabiat,  
Sen ona emassa, jallodsan, dunyo.*

**Eslatma!** Ba'zan undalma gap boshida kelib kuchli undash ohangi bilan ayttilishi mumkin, bunday vaqtida undalmadan so'ng undov belgisi qo'yiladi va gap bosh harf bilan davom ettiriladi.

*Odamlar! Eshitmadim demanglar.*

**Eslatma!** O'ziga qarashli aniqlovchisi yoki izohlovchisi bor undalmalar **yoyiq undalmalardir.**

*Kapitan Mansurov, bugun nutq so'zlaysiz.  
Jahonga yuz tutgan O'zbekistonim, sening yutug'ing menikidir.  
Vatanimiz muvaffaqiyatlarini ko'rolmaydigan quzg'unlar, aying, O'zbekistonning taraqqiyotiga kim g'ov bo'la oladi?!*

**Eslatma!** Undalmalar tinglovchining diqqatini kuchliroq jalb etish, emotsiyonallikni ta'minlash, hayron qolish ma'nosini ifodalash uchun ko'pincha **ey, hoy, voy** kabi undovlar bilan birgalikda keladi. Bunday undovlar ko'pincha undalma oldidan qo'llaniladi, orada hech qanday tinish belgisi qo'yilmaydi.

*Masalan, Hoy o'rtoqjon, qulog soling so'zimga.*

**Eslatma!** **ey, ho, ov, -u (-yu)** kabi undovlar undalmadan keyin kelsa, orada chiziqcha qo'yiladi. Bu vaqtida undalma orqali ifodalangan shaxs yoki predmet so'zlovchidan uzoq masofada ekanligi ifodalanadi.

*Karimjon -u, bu yoqqa kelng.*

**Eslatma!** Undalmada **I shaxs birlik egalik** qo'shimchasi **yaqinlik, erkalash, suyish** ma'nolarida bildiradi.

*Azizim, dunyoga bevaqt kelibmiz.*

**Eslatma!** Agar er-xotin bir-biriga murojaat etsa III shaxs *birlikdagi egalik qo'shimchasidan* foydalanadi.

*M: Dadasi, choy iching.*

**Eslatma!** Ayrim hollarda undalma tushib qolishi mumkin, bunday vaqtida uning o'mniga undov so'z qo'llaniladi. U *hurmatsizlik, mensimaslik* ma'nosida ifodalanadi.

*M: Hey, bu yoqqa kel. Hey, chilim keltir.*

**Eslatma!** Quyidagi **so'zlarni** izohi bilan yodlang!

**Lafzi** – nutq hosil qiluvchi a'zo; **Oroyish** – bezak, bezalgan; **Qabog'** – ko'z kosasini qoplovchi; **Mengiz** – yuzdagi xol;

## **KIRITMALAR.**

**Eslatma!** So'zlovchining o'zi bayon etayotgan fikriga ishonch, gumon, achinish kabi munosabatlarini ifodalovchi sintaksis birliklarga **kritmalar (kirishlar)** deyiladi. Kiritmalar so'z va birikma holatida bo'ladi. *Albatta, ehtimol, chamasi, balki.*

**Eslatma!** Kirishlar gapning boshqa bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydi. Shuning uchun u boshqa gap bo'laklaridan farq qiluvchi alohida ohang bilan talaffuz qilinadi va yozuvda vergul bilan ajratiladi.

*M: Ehtimol, u bugun kelmas. U bugun, ehtimol, kelmas. U bugun kelmas, ehtimol.*

**Eslatma!** So'zlovchi gap orqali bayon qilayotgan axborotga qanday munosabatda ekanligiga qarab, quyidagi **kiritma** so'zlardan muvofig'ini qo'llaydi:

**I. Tasdiq munosabatini** ifodalamoqchi bo'lsa, *darhaqiqat, haqiqatan ham, to'g'ri*

**II. Ishonch munosabatini** bildirmoqchi bo'lsa, *albatta, shubhasiz, shaksiz.*

**III. Gumon ma'nosini** ifodalamoqchi bo'lsa, *ehtimol, balki.*

**IV. Chama-taxmin ma'nosini** ifodalamoqchi bo'lsa, *chamasi, chamamda, taxminan* so'zlaridan foydalanadi.

**Eslatma!** Kirish so'zlarning o'z qo'llanilish uslublari bor:

- *Shaksiz, shubhasiz, darhaqiqat, demak, avvalambor, fikri ojizimcha* so'zlari *kitobiy uslubga* xos.

- *Shaksiz, fikri ojizimcha* so'zlari *badiiy uslubga* xos.

- *Bayon qilinishicha* so'zi *publitsistik uslubga* xos.

**Eslatma!** Menimcha, sizningcha, uning ta'kidlashicha, fikri ojizimcha, aytishlaricha singari kirishlar fikrning kimgadir qarashli ekanligini bildiradi.

**Eslatma! Birinchidan, ikkinchidan, avvalo, avvalambor** singari kiritmalar o'z fikri tartibiy qismlarining ahamiyatlilik darajasini ifodalaganda qo'llaniladi.

Avvalo, bu ishingiz bilan boshqalarga ziyon yetkazmasligingiz kerak.

**Eslatma!** Kiritmalar tuzlishiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

**1. Sodda kiritmalar** – so'z va so'z-gaplar.

*Qani, kiring, ichkarida gaplashamiz. (so'z)*

*Ha, bu masalani keng muhokama qilamiz. (so'z-gap)*

**2. Murakkab kiritmalar** – so'z birikmali, kengaygan birikmalar va gaplar.

*Dunyoda hech bir xalq to'g'ri kelolmas, mening bilishimcha, senng elingga.*

**Eslatma!** Quyidagi so'zlarni izohi bilan yodlang!

**1. Jelatin**(fr. gelatine– dirildoq, yelimshak; lot. gelatus– muzlagan) Yosh mol suyagi va terisidan tayyorlanadigan bir nav yelimshak modda.

**2. Jungli**(ing. jungle; f.-hind – changalzor, o'rmon)

Chakalak, qalin o'rmonzor.

**3.Jyuri**(fr. jury– hakamlar guruhi; lot. juro– qasam, ont ichaman; qasamyod qilaman) Musobaqa, tanlov va shu kabilarda g'oliblikni va mukofot berishni belgilovchi mutaxassislar, hakamlar guruhi.

## KIRITMA GAPLAR

Nutq jarayonida so'zlovchi muayyan tushuncha yoki fikrga bog'liq qo'shimcha ma'lumot berishi mumkin. Gapning asosiy mazmuniga qo'shimcha axborot qo'shuvchi va alohida ohang bilan ajralib turuvchi qismga **kiritma gaplar** (**kiritmalar**) deyiladi. Kiritma gap maqomini olish uchun o'sha kiritma gapda kesim bo'lishi kerak.

*M: Musobaqada Rahimberdi (siz uni taniysiz) peshqadamlik qilmoqda.*

**Eslatma!** Agar kiritma gaplar gapdan tushirib qoldirilsa ham, gapning asosiy ma'nosiga ziyon yetmaydi.

**Eslatma!** Kiritma gaplar o'zi qo'llanayotgan gap bilan mazmunan bog'liq bo'lishi shart.

*"O'tkan kunlar" (siz bu romanni o'qigansiz)* o'zbek romanchiligi tarixida alohida o'rniga ega.

**Eslatma!** Kiritmalar asosan, kitobiy uslubga xos. Kiritmalar fikrga qo'shimcha ma'lumot bergenligi uchun, asosan, gap o'rtasida keladi va yozuvda doimo gapning boshqa qismlaridan qavs bilan ajratiladi.

*M: Uni tanishsa kerak (Farg'onada bir-birini tanimaydigan odam kam), bir bola kosada yaxna choy olib chiqdi.*

**Eslatma!** Kiritmalar eng ko'p qo'llaniladigan soha bu *dramatik tur*. Dramatik turda qahramonning nutqi qay tarzda bayon etilishi remarkalarda beriladi. **Remarka** – personaj nomi bilan uning nutqi orasidagi qavs.

*M: Xon(Turib yuradur). Bir dushmanimning qoni qurimayin yana bittasi chiqib qoladur. Domla (odamlarga qarab). O'qumak va mullo bo'lmak uchun pul kerak.*

**Eslatma!** Kiritma gaplar qo'shma gaplar o'rtaida kelsa, qo'shma gapning birinchi qismidan so'ng keladi va vergul yoki boshqa tinish belgilari bo'lsa kiritma gapdan keyin yoziladi.

*M: Uni tanishsa kerak, bir bola kosada yaxna choy olib chiqdi.*

*Uni tanishsa kerak (Farg'onada bir-birini tanimaydigan odam kam), bir bola kosada yaxna choy olib chiqdi.*

**Eslatma!** Kiritma gaplar o'z ichida vergul bilan qo'llanilishi mumkin, ba'zan his-hayajon bilan ifodalansa undov belgisi qo'lanilishi mumkin.

*M: Shokir sartarosh (tumanda uni hamma taniydi, siz ham tanisangiz kerak) o'g'lini uylantirmoqchi bo'libdi.*

*Sarpardaning chap tomonida, baland qilib to'shalgan oq kigizlar ustida... boshiga qora telpak, egniga uzun qora jun chakmon kiygan bir odam... (Yo rab! — bu odam Sulton Mahmud G'aznaviy edi!) uzala tushib yotardi!*

**Eslatma!** Quyidagi so'zлarni izohi bilan yodlang!

**Faqir** – kambag'al, oddiy; bechorahol; **Mulozim** – qulq soluvchi, xizmatkor

**Qaviy** – kuchli, baquvvat; **Uruj** – ro'za, tiyilish; **Dag'i** – tag'in, yana;

**Yozuq** – farq, tafovut.; **Xilof** – gunoh, ayb, qilmish;

## **GAPNING IFODA MAQSADIGA KO'RA TURLARI**

**Eslatma!** So'zlovchining maqsadiga xoslangan gap turlari gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari deyiladi.

Gaplar ifoda maqsadiga ko'ra 4 guruhga bo'linadi:

**1. Darak gaplar**

**2. Buyruq gaplar**

**3. So'roq gaplar**

**4. Istak gaplar**

**1. DARAK GAPLAR** – Kesimi aniqlik maylidagi fe'llardan, tasdiq yoki inkor ma'nosini bildiruvchi otlar bilan ifodalanib, biror voqe-a-hodisa haqida xabar bildiruvchi gaplarga darak gaplar deyiladi. *Kuch – bilim va tafakkurda.*

**Eslatma!** Ba'zan darak gaplardagi gap bo'laklarining me'yordagi tartibi o'zgarishi mumkin. (inversiya hodisasi).

- a) *Urug'chilik instituti shahar markazidan xiyla chetda joylashgan. (bu gap kitobiy uslubga xos);*
- b) *Shahar markazidan urug'chilik instituti xiyla chetda joylashgan. (Bu gap so'zlashuv uslubiga xos).*
- d) *Xiyla chetda joylashgan urug'chilik instituti shahar markazidan uzoqda edi. ( Bu gapda institutning qayerda joylashganligiga ahamiyat berilgan).*

**Eslatma!** Agar darak gaplarning kesimi inkor shaklida bo'lsa, **darak-inkor gaplar** deyiladi. Darak-inkor gaplarning kesimi quyidagicha ifodalanadi:

**I.** Bo'lishsizlik shaklini olgan fe'llar bilan ifodalanadi:

*Odamlar ahil bo'lмаган ўрт камол топмайди.*

**II. Yo'q, emas** so'zlarini olgan sifatdosh yoki ot bilan ifodalanadi:

*Bu bizning bog'имиз emas. У етибор бергани yo'q.*

**Eslatma!** Ikkita inkor shakl qo'llanilib, gapga tasdiq ma'nosini beradi. Masalan, **o'qimay qo'ymayman**. Inkor shakl orqali ifodalangan tasdiq ma'nosini tasdiq shakl orqali ifodalangan tasdiq ma'nosidan kuchliroq bo'ladi.

**2. BUYRUQ GAPLAR** - Kesimi buyruq maylidagi fe'l bilan ifodalanib buyruq-xitob ma'nolarini ifodalagan gaplarga buyruq gaplar deyiladi. Bunday gaplar kesimi tarkibida **-y, -ay, -yin, -ayin, -ylik, -aylik, -ng, -ing, -nglar, -inglar, -gin, -kin, -qin, -gil, -sin, -sinlar** kabi mayl qo'shimchalari bo'ladi.

*M: Topshiriqni bajaring. Oldin o'yla, keyin so'yla.*

**Eslatma!** Ba'zan buyruq gaplarning buyruq maylidagi fe'l bilan ifodalangan kesimi ba'zan tushib qolishi mumkin, bunday paytda gap oxirida undov belgisi qo'yiladi. Masalan, *Hamma Paxta terimiga!*

**Eslatma!** Ayrim hollarda uchinchi shaxs buyruq maylidagi fe'llar bilan ifodalangan gapning kesimi II shaxs ma'nosida qo'llaniladi. Bunday vaqtda iltifot, mulozamat bildirish, kesatiq kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Masalan, *Chek mang o'rнida Chekilmasin. Uyga kiring o'rнига Uyga kirilsin.*

**Eslatma!** Buyruq gapning kesimi odatda gap oxirida keladi. Ba'zan buyruqni kuchaytirish, do'q-po'pisa ma'nosi ifodalanganda kesim gap boshida keladi.

Masalan, *Qo 'lingizni oling o'rniga Oling qo 'lingizni.*

**Eslatma!** Quyidagi **so'zlarni** izohi bilan yodlang!

**Sharaf** – faxrlanishga arziydigan narsa, biror ijobiy xislat, xizmat yoki iqtidor tufayli xalq orasida taratilgan dong

**Zora** – qani edi, koshki edi;

**Dorivor** – kasalliklarga davo bo'ladigan va malham olinadigan yoki taomni xushxo'r qiladigan modda;

**Qabarish** – ishslash, ishqalanish yoki kuyish natijasida bo'rtma hosil bo'lishi;

**Nabotot** – o'simliklar dunyosi, o'simliklar;

**Hakim** – ko'pincha, o'tmishdagi o'tkir tabib; donishmand, faylasuf

**Darmon** – tirik organizmdagi quvvat, mador, kuch

**3. SO'ROQ GAPLAR** – bu gap quyidagicha hosil qilinadi va gap oxirida so'roq belgisi qo'yiladi:

I. So'roq olmoshlari (*kim? nima? qayer? qachon?... va h.k.*) -**Kim keldi?** - **Anvar.**

II. So'roq yuklamalari(-*mi, -chi, -a, -ya...*) -**Siz o'qiysizmi?** -**Ha, o'qiymen.**

III. So'roq ohangi yordamida (*bunda ko 'pincha gap takror qo 'llanadi.*)

- **Bugun tunda yo'lga chiqami.**

- **Tunda?**

**Eslatma!** Agar so'roq gaplar so'roq olmoshlari orqali hosil qilingan bo'lsa, so'roqqa mos aniq javobni talab qiladi.

*M:* - **Kim** *darsga kelmadi?* - **Sobir** *kelmadi.*

**Eslatma!** So'roq yuklamasi va so'roq ohangi orqali hosil qilingan so'roq gaplar esa **ha** yoki **yo'q** javobini talab etadi. Ha va yo'q so'zlarini javob tarzda qo'llab, so'ngra unga izoh beriladi. Masalan:

— *Sen maktabda o'qiysanmi?*

— *Ha, men maktabda o'qiymen.*

— *Tunda jo'naymiz?*

— *Ha, tunda jo'naymiz.*

**Eslatma!** Ba'zan darak ma'nosini ifodalash uchun darak gap qolipidan emas, balki so'roq gap qolipidan foydalaniladi. Bunday gaplar **ritorik so'roq gaplar** deyiladi. Ya'ni javob talab qilinmaydi, javobi o'zida ifodalangan bo'ladi.

Masalan, *Kim onani sevmaydi?*

**Eslatma!** Ritorik so'roq gaplarning kesimi bo'lishsizlik shaklida bo'lsa, tasdiq ma'nosini beradi; aksincha, bo'lishli kesim bilan ifodalangan bo'lsa inkor gap ma'nosini bildiradi. Masalan,

*Kim onani sevmaydi? (ma'nosi, Hamma onani sevadi.)*

*Daraxtlarni kesishga kim jur'at qiladi? (Daraxtlarni kesishga hech kim jur'at qilmaydi).*

**Eslatma!** So'roq orqali ifodalangan darak, darak orqali ifodalangan gapdan kuchliroq bo'ladi. Masalan, **Vatanni hamma sevadi** gapidan ko'ra **Vatanni kim sevmaydi?** Gapi kuchliroq.

**Eslatma!** Ba'zan buyruq ma'nosini ifodlash uchun so'roq gapdan foydalaniladi.

*M: Yurmaysanmi? (Yur!)*

**Eslatma!** Bunda ham buyruq orqali ifodalangan buyruqdan so'roq orqali ifodalangan kuchliroq bo'ladi.

**Eslatma!** Agar so'roq gap darak ma'nosini ifodlagan bo'lsa, **so'roq-darak gap** deyiladi. Agar buyruq ma'nosini ifodalagan bo'lsa **so'roq-buyruq gap** deyiladi.

**4. ISTAK GAPLAR** – Kesimi **-sa** shart-istik maylidagi fe'llar bilan ifodalangan gaplar istak gaplar deyiladi. Yozuvda istak gaplar oxiriga nuqta qo'yiladi. Bunday gaplarning qolipi quyidagicha:

**II.** \_\_\_\_\_-sa.

**II.** \_\_\_\_\_-sa, \_\_\_\_\_-sa.

*Biz ham xorijiy mamlakatlarga sayohat qilsak.*

*Toshkentga borsam, Mustaqillik maydonini ko'rsam.*

**Eslatma!** *Biz ham xorijiy davlatlarga boraylik. Yurtimiz obod bo'lsin. Toshkentga boray. Bular buyruq gaplar.*

**Eslatma!** Quyidagi **so'zlarni** izohi bilan yodlang!

**To'bichoq** – chopqir, yo'rg'a ot;

**Dorug'asi** – shahar posbonlari sardori;

**Tarh** – chizma lavha: loyiha, reja;

**Yog'iy** – dushman, g'anim;

**Taftish** – bo'lib o'tgan ish, hodisa va shu kabilar yuzasidan yoki haqiqiy ahvolni aniqlash maqsadida o'tkaziladigan tekshiruv;

**Azon** – namoz o'qishga chaqiriq; tong yorishish, g'ira-shira payti; erta tong.

## GAPLARNING HIS-HAYAJON ISHTIROKIGA KO'RA TURLARI

His-hayajonning ishtirokiga ko'ra gaplar ikki xil bo'ladi:

### I. His-hayajonsiz gaplar;

### II. His-hayajonli gaplar (Undov gaplar).

**Eslatma!** Darak, buyruq, so'roq, istak gaplar **his-hayajonsiz gaplar** deyiladi. Agar bular nutqda kuchli his-hayajon bilan aytilda, **his-hayajonli gap (undov gap)**ga aylanadi va ular oxiriga undov belgisi qo'yiladi.

#### His-hayajonsiz gaplar

1. *Poyezd keldi.*
2. *Uyingiz nurga to 'lsin.*
3. *Dalaga chiqmaysizmi?*
4. *Vatanim bog 'larga burkansa.*

#### His-hayajonli (undov) gaplar

- Keldi poyezd!*  
*Nurga to 'lsin uyingiz!*  
*Chiqmaysizmi dalaga?!*  
*Eh, bog 'larga burkansa Vatanim!*

**Eslatma!** Agar gapning kesimi gap boshida keltirsak gap undov gapga aylanadi.

*Tantana boshlandi. Boshlandi tantana!*

**Eslatma!** Gap tarkibida his-hayajon undovlari qatnashsa bunday gaplar oxirida ham undov belgisi qo'yiladi. *Voy, qomatingdan onang o'rgilsin!*

**Eslatma!** Agar gap tarkibida *naqadar, qanchalik, shunchalar* kabi so'zlar ishtirok etsa gap **undov gapga** aylanadi va undov belgisi qo'yiladi. M: *Naqadar mudhish voqeal!*

**Eslatma!** Salomlashish, so'rashish, xayrashish singari gaplar ham yuqori ohangda aytildi. Gap oxirida undov belgisi qo'yiladi.

**Eslatma!** Agar so'roq gap kuchli his-hayajon bilan aytilda, oldin so'roq belgisi, keyin undov belgisi qo'yiladi. Masalan,

*Aytsangchi, nima dedi?! O'n yil! O'n yildan beri kasal ekanmi?!*

**Eslatma!** Quyidagi **so'zlarni** izohi bilan yodlang!

**Fozila** – ilm-fan asoslarini yaxshi egallagan ayol; olima

**Qutvol** – shahar hokimi;

**Navkar** – o'tmishda harbiy xizmatkor, askar;

**Tolor** – yog'och yoki yengil metall panjaradan qilingan ayvon

**Eshkakchi** – odam va yuklarni daryordan o'tkazishni o'ziga kasb qilib olgan kishi; qayiqchi;

**Ko'shk** – qadimda baland, bahavo qilib solingan yengil imorat;

**Mehrob** – masjid ichida uning qibla tomonidagi devorida taxmon shaklida qurilgan joy (namoz shu tomonga qarab o‘qiladi)

**Haram** – Xos, begonalar kirishi man etilgan joy,

**Chodir** – Matodan qurilgan kappa, Palatka

## **SODDA GAP TAHLILI**

Sodda gap bo'yicha sintaktik tahlil 3 bosqichda amalga oshiriladi:

- 1. Gapda so'zlarning o‘zaro bog’lanishi (so‘z birikmasi) bo'yicha.**
- 2. Gap bo'laklarini aniqlash bo'yicha.**
- 3. Gap qurilishi bo'yicha.**

### **1. Gapda so'zlarning bog’lanishi bo‘yicha tahlilda:**

- a) birikmaning teng bog’lanishi yoki tobe bog’lanishidagi turi;
- b) tobe bog’lanish bo’lsa, tobelanish turi (moslashuv, boshqaruv, bitishuv);
- d) teng yoki tobe bog’lanishni yuzaga keltirgan vositalar (bog’lovchilar, ohang, so‘z shakllari, ko‘makchilar, o‘z tartibi) aniqlanadi. Masalan,

*Shubhasiz, inson ilm va mehnat bilan baxtli bo'ladi.*

- 1) *inson baxtli bo'ladi* — tobe bog’lanish, moslashuv, kesim va eganing shaxs-sonda mosligi (III shaxs, birlik);
- 3) *ilm bilan baxtli bo'ladi* — tobe bog’lanish, boshqaruv, **ilan** ko‘makchisi orqali bog’langan;
- 4) *mehnat bilan baxtli bo'ladi* — tobe bog’lanish, boshqaruv, **ilan** ko‘makchisi orqali bog’langan.
- 5) *ilm va mehnat* — teng bog’lanish, va teng bog’lovchisi orqali bog’langan.

### **2. Gap bo'laklarini aniqlash bo‘yicha tahlilda:**

- a) gap bo'laklari belgilanadi, uyushiq va ajratilgan bo'laklar bor yoki yo'qligi izohlanadi;
- b) gap bo'laklari bilan munosabatga kirishmagan «bo'laklar» (kiritma, undanmalarning mavjud yoki mavjud emasligi) ko‘rsatiladi;
- d) gap bo'laklarining joylashuv tartibi (me'yoriy tartibda yoki o'zgargan tartibda) izohlanadi. Masalan,

*Shubhasiz, inson ilm va mehnat bilan baxtli bo'ladi.*

*Uyushiq bo'lagi bor: ilm bilan, mehnat bilan.*

*Ajratilgan bo'lagi — yo'q.*

*Kiritma bor: shubhasiz.*

*Undalma — yo'q.*

*Gap bo 'laklarining joylashuvi — me'yoriy.*

### **3. Gap qurilishi bo'yicha tahlilda:**

- a) gapning ifoda maqsadiga ko'ra turi (darak, so'roq, buyruq, istak);
- b) gapning his-hayajonning ifodalanishiga ko'ra turi [his- hayajonsiz yoki his-hayajonli (undov) gap];
- d) yig'iq yoki yoyiq sodda gapligi, to'liq yoki to 'liqsiz gapligi, egali yoki egasiz gap ekanligi; egali gap bo'lsa: uning egasi ma'lum gap yoki egasi umumlashgan gapligi; egasiz gap bo'lsa, uning shaxsi noma'lum gapligi, atov yoki so 'z-gapligi izohlanadi.

*Shubhasiz, inson ilm va mehnat bilan baxtli bo'ladi.*

1. Ifoda maqsadiga ko'ra — darak gap.
2. His-hayajonning ifodalanishiga ko'ra — his-hayajonsiz gap.
3. Tuzilishiga ko'ra — sodda gap, yoyiq sodda gap, to'liq gap, egali gap.

***Eslatma!*** Quyidagi **so'zlarni** izohi bilan yodlang!

**Osih** – nasihatgo'y;

**Tizgin** – hayvonlarni bog'lash yoki qantarib qo'yish uchun xizmat qiladigan, uchi suvliqqa yoki boshvoqqa biriktiriladigan uzun tasma yoki chizimcha; boshqarish vositasi;

**Nuqson** – kishi nomiga nomunosib, uni salbiy jihatdan ko'rsatadigan belgi; kamchilik, illat, qusur, ayb;

**Tama** – birovdan bir narsa undirish hissi, o'ziniki qilish, olishga bo'lgan intilish; umidvorlik, umid, ilinj;

**Tamiz** – o'z bilimi, aqli, farosati bilan tegishlicha ish tutish qobiliyati; fahm, farosat

**Raso** – kami yo'q, to'liq, but; aqliy jihatdan to'la rivojlangan, kamolotga erishgan; yetuk, barkamol

**Xalifa** – musulmonlar jamoasi va musulmon davlatining diniy, ayni bir paytda dunyoviy boshlig'i.

**Ziyorat qilmoq** – muqaddas joylarga, mozor va qabristonlarga borib sig'inish; hurmat yoki rasmiyat yuzasidan tabarruk kishilar huzuriga tashrif buyurib, holidan xabar olish;

**Omoch** – ulov qo'shib yer haydaladigan, metall tishli qadimgi eng oddiy yog'och yoki temir asbob.

## **SODDA GAP VA QO'SHMA GAP**

***Eslatma!*** Gap uchun muhim belgi kesimlik belgisi hisoblanadi. Kesimlik belgisi deyilganda kesimlik shakllari tushuniladi. Ular quyidagilar:

- 1. Zamon qo'shimchalari**
- 2. Shaxs-son qo'shimchalari**
- 3. Mayl qo'shimchalari**

**4. Bog'lamalar:** *-man, -san, -miz, -siz, -dir, edi, ekan, emish, emas, erur, bo'lmoq, hisoblanmoq, sanalmoq, kerak, lozim, darkor, zarur, shart, lozim.*

Yuqoridagi qo'shimchalarini olgan fe'l *shakllangan fe'l* deyiladi. Har qanday shakllangan kesim gap hisoblanadi. Masalan, *Bahor keldi*.

**Eslatma!** Gap sodda yoki qo'shma gap ekanligini quyidagicha aniqlaymiz:

**1.** Bitta ega, bitta kesim yoki bitta kesim bo'lsa va u shakllangan bo'lsa **sodda gap** hisoblanadi. Qolipi quyidagicha:

**EGA + KESIM yoki KESIM**      *Men keldim yoki keldim – soda gap.*

*Jaloliddin Manguberdi mo'gul bosqinchilariga qarshi kurashda jasorati tufayli buyuk vatanparvar va milliy qahramon sifatida Sharq-u G'arbda dong taratdi – Sodda gap.*

**2.** Ega bitta, kesimlar birdan ortiq bo'lib, faqat oxirgi kesim shakllangan bo'lsa, bunda barcha kesimlar bitta o'sha egaga taalluqli bo'ladi. Bu gap **soda gap** hisoblanadi va kesimlari esa **uyushiq kesim** deyiladi. Qolipi quyidagicha:

**EGA + KESIM, KESIM – soda gap.**

*Biz uyg'a qaytib, dars tayyorladik. – soda gap.*

*Ular baliqlarni tozalab, tuzlab, qovurib olishdi – sodda gap.*

**3.** Ega bitta, kesimlar birdan ortiq bo'lsa va hamma kesimlar shakllangan bo'lsa **qo'shma gap** hisoblanadi. Qolipi quyidagicha:

**Shakllangan      shakllangan**  
**EGA + KESIM + KESIM – qo'shma gap**

*Biz uyg'a qaytdik va dars tayyorladik – qo'shma gap.*

*Ular baliqlarni tozalab olishdi, tuzlab olishdi, qovurib olishdi – qo'shma gap.*

**4. EGA KESIM + EGA KESIM**      *qolipida kelib, oxirgi kesim shakllangan*

bo'lsa, bunda **qo'shma gap** hosil bo'ladi. Chunki ega kesim juftligi shakllanishi yo shakllanmasligidan qat'i nazar gap hisoblanadi.

*Bahor kelib, kunlar isidi – qo'shma gap.*

**5. EGA KESIM + EGA KESIM**      *qolipida kelib, hamma kesimlar shakllangan*

bo'lsa, bu ham **qo'shma gap** hisoblanadi.

*Bahar keldi va kunlar isidi – qo'shma gap.*

*Misollar:*

*Kun botib, quyosh qoraya oshladi – qo'shma gap.*

*Siz a'lochi va jamoatchisiz – sodda gap.*

*Hamma chuqur xo'rsingach, u panada piq-piq yig'ladi – qo'shma gap.*

*A.Qahhorning ijodi xalq hayoti bilan ko'tarildi, birga ulg'aydi – qo'shma gap.*

*Men bu masalani uqqan va yechganman – soda gap.*

*Men bu masalani uqqanman va yechganman – qo'shma gap.*

*Do'kondorlar molini maqtab va xaridorlarni chorlab turardi – soda gap.*

*Do'kondorlar molini maqtab turardi va xaridorlarni chorlab turardi – qo'shma gap.*

*Tig' yarasi tuzalar, til yarasi tuzalmas – qo'shma gap.*

*Shamol turgach, hamma yoqni to'zon qopladi – qo'shma gap.*

*Shamol turdi va hamma yoqni to'zon qopladi – qo'shma gap.*

*Men sinfga kirdim, deraza oldida Shahnozani ko'rdim – qo'shma gap.*

*Men sinfga kirgach, deraza oldida Shahnozani ko'rdim – soda gap.*

*Men sinfga kirgach, deraza oldida Shahnoza ko'rindi – qo'shma gap.*

*Biz voqe joyiga borishimiz kerak, o'z ko'zimiz bilan ko'rishimiz kerak va ishonch hosil qilishimiz kerak – qo'shma gap.*

*Biz voqe joyiga borishimiz, o'z ko'zimiz bilan ko'rishimiz va ishonch hosil qilishimiz kerak – sodda gap.*

## **QO'SHMA GAP QISMLARI VA ULARNI BOG'LOVCHI VOSITALAR**

Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar quyidagi bog'lovchilar yordamida bog'lanadi:

**I. BOG'LOVCHILAR.** Ular ikkiga bo'linadi:

**1. Teng bog'lovchilar** (biriktiruv, zidlov, ayiruv, inkor)

**2. Ergashtiruvchi bog'lovchilar** (sabab, shart, maqsad, qiyos-chog'ishtiruv).

**II. BOG'LOVCHI VAZIFASIDAGI VOSITALAR:**

**1. Bo'lsa, esa, yo'qsa, deb so'zlari**

**2. -u, -yu, -da, -ki** yuklamalari

**3. Nisbiy so'zlar** (ya'ni so'roq va ko'rsatish olmoshlari)

**4. Shuning uchun, shu sababli, shu tufayli** ko'makchili qurilmalar

**5. -sa shart mayli**

**III. OHANG YORDAMIDA** – Yuqoridagi bog'lovchi vositalardan hech qaysi ishtiroy etmaydi.

**Eslatma!** Qabday bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanishiga qarab qo'shma gaplar uch guruhga bo'linadi:

**1. Bog'langan qo'shma gap.**

**2. Ergashgan qo'shma gap.**

**3. Bog'lovchisiz qo'shma gap.**

### **BOG'LANGAN QO'SHMA GAPLAR**

Quyidagi bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanadi:

**I. Teng bog'lovchilar.** Ular to'rt guruhga bo'linadi:

*1. Biriktiruv bog'lovchilari: va, hamda, ham*

*2. Zidlov bog'lovchilari: ammo, lekin, biroq, balki*

*3. Ayiruv bog'lovchilari: yo, yoki, yoxud, yoinki, yo ... yo, goh ... goh, dam ... dam, bir ... bir, ba'zan ... ba'zan*

*4. Inkor bog'lovchisi: na ... na.*

**II. -u, -yu, -da yuklamalari**

**III. Bo'lsa, esa so'zlari.**

### **BIRIKTIRUV BOG'LOVCHILARI YORDAMIDA BOG'LANGAN QO'SHMA GAPLAR**

**Va, hamda, ham** biriktiruv bog'lovchilari 2 xil ma'noni ifodalaydi:

1. Payt ma'nosini

2. Sabab-natija ma'nosini.

**Eslatma!** Agar sabab-natija ma'nosini ifodalasa, qo'shma gapning ikkinchi qismi boshida **natijada** so'zini qo'llab ko'rish mumkin.

*Anor so'zlar va Zaynab qalbi tol bargidek dir-dir titrar. (Anor so'zlar (va) natijada Zaynab qalbi tol bargidek dir-dir titrar) – sabab-natija ma'nosi.*

*To'satdan eshik sharaqlab ochildi va ostonada Ergash paydo bo'ldi – payt ma'nosi.*

**Eslatma!** **-u, -yu, -da** yuklamalari biriktiruv bog'lovchi vazifasida kelishi mumkin. Bunday vaqtida **va, hamda** so'zlari bilan almashtirib ko'rish mumkin.

*Mashhurbek ayg'irning chilvirini bolalarga tutqazdi-da, chollar bilan gaplashib turgan Sanobarga yuzlandi.*

**Esslatma!** **Ham** yuklamasi biriktiruv bog'lovchisi vazifasida kelganda ikkita sodda gapning o'rtasida qo'llaniladi. Bunda ham **va** bog'lovchisi bilan almashadi, almashmasa yuklama hisoblanadi.

*Ishlarim yurishib ketdi **ham** yerim o'zimga qoldi – **bog'lovchi** (va bilan almashadi)*

*Uzoqdan kelgan mehmonlar bugun **ham** o'z uylariga ketishmadi – **yuklama**.*

## **ZIDLOV BOG'LOVCHILARI YORDAMIDA BOG'LANGAN QO'SHMA GAPLAR**

*Ammo, lekin, biroq, balki* zidlov bog'lovchilari qo'shma gapning ikkinchi qismi boshida keladi, yozuvda ulardan oldin vergul qo'yiladi.

\_\_\_\_\_ *,ammo \_\_\_\_\_.* Men buni bilaman, **ammo** sizga aytolmayman  
\_\_\_\_\_, **lekin** \_\_\_\_\_. Uni ko'rghanim yo'q, **lekin** eshitganman.

\_\_\_\_\_, **biroq** \_\_\_\_\_. Kechasi yana qor yog'di, **biroq** sovuq emas.

**Eslatma!** **Balki** so'zi omonim so'z. Ham modal, ham bog'lovchi:

1. **Balki** so'zi sodda gap boshida kelib, undan so'ng vergul qo'yilsa **modal so'z** deyiladi.

*Balki, \_\_\_\_\_.* **Balki**, ertalab o'ziga isitib berish uchun shunday qildi.

2. **Balki** zidlov bog'lovchisi bo'lganda qo'shma gapning ikkinchi boshida keladi, yozuvda undan oldin vergul qo'yiladi. Bunday vaqtida birinchi gapning kesimi **-ma, emas, yo'q** bo'lishsizlik shakllarida bo'ladi.

\_\_\_\_\_ *emas, balki \_\_\_\_\_.*

*U qiyalmaydi, balki biz azob chekamiz.*

**Eslatma!** **Balki** zidlov bog'lovchisi ham gap bo'laklarini, ham gaplarni bog'lab kelishi mumkin. Balkidan oldin kesim ~~kelsa~~ gaplarni bog'laydi, boshqa gap bo'lagi kelsa gap bo'laklarini bog'laydi.

*M: Inson go'zalligi bilan emas, balki mehnati bilan kamol topadi. (gap bo'laklari).*

*Ishlar birozdan so'ng kamaymadi, balki ko'paydi (gaplarni bog'ladi).*

**Eslatma!** **-u, -yu, -da** yuklamalari zidlov bog'lovchisi vazifasida keladi. Zidlash va ketma-ketlik ma'nosini bildiradi. Bunday vaqtida **ammo, lekin, biroq** bilan almashtirib ko'rish mumkin.

*Oy yoritadi-yu, lekin isitmaydi. Soni ko'p-da, salmog'i yo'q.*

## **AYIRUV BOG'LOVCHILARI YORDAMIDA BOG'LANGAN QO'SHMA GAPLAR**

**Eslatma!** **Goh ... goh, dam ... dam, ba'zan ... ba'zan, bir ... bir** ayiruv bog'lovchilari voqealari-hodisalarining galma-gal ro'y berishini ifodalaydi.

*Dam kun qizib ketadi, dam jala quyadi.*

**Eslatma!** *Yo, yoki, yoinki, yo ... yo* ayiruv bog'lovchilari voqea-hodisalarni faqat bittasining yuzaga chiqishini ifodalaydi.

*Yo siz keling, yo men boray.*

## **INKOR BOG'LOVCHISI YORDAMIDA BOG'LANGAN QO'SHMA GAP**

*Na ... na* yordamida hosil qilinadi. *Na ... na* omonim xarakterda, ya'ni ham bog'lovchi, ham yuklama. U quyidagicha farqlanadi:

**1.** *Na ... na* qatnashgan gapning kesimi *bo'lishli, tasdiq* shaklida yoki *mavjud, bor* so'zi bilan ifodalangan bo'lsa, *na ... na inkor bog'lovchisi* hisoblanadi.

*Na ko'kda bir yulduz ko'rindi, na yerda qimirlagan jon seziladi. Inkor bog'lovchisi*

**2.** *Na ... na* qatnashgan gapning kesimi *bo'lishsizlik, inkor* shaklida bo'lsa yoki *yo'q* so'zi bilan ifodalansa *na ... na inkor yuklamasi* hisoblanadi.

*Na ko'nglimni to'ka olmayman, na o'g'limni ura olmayman. Inkor yuklamasi.*

**Eslatma!** *Na ... na* qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni yoki sodda gap tarkibidagi uyushiq bo'laklarni bog'lab kelishi mumkin. Quyidagi qolipda:

**1. Na ega kesim, na ega kesim – qo'shma gap.**

**2. Na ega kesim, na ega – qo'shma gap (*to'liqsiz gap*)**

**3. Na ega, na ega - sodda gap**

*Na otasi xabar oldi, na onasi xabar oldi – qo'shma gap.*

*Na otasi xabar oldi, na onasi – qo'shma gap.*

*Na otasi, na onasi xabar oldi – sodda gap.*

## **BO'LSA, ESA SO'ZLARI YORDAMIDA BOG'LANGAN QO'SHMA GAPLAR**

*Bo'lsa, esa* so'zлari bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga, ular o'rtasida *qiyoslash-zidlash* munosabatlari mavjudligini bildiradi. *Bo'lsa, esa* so'zлari har doim qo'shma gapning ikkinchi qismi tarkibida qiyoslanuvchi bo'lakdan keyin keladi.

1. \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_ *bo'lsa* \_\_\_\_\_.

2. \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_ *esa* \_\_\_\_\_.

*Tovus o'zining chiroyli patlarini ehtiyot qiladi, vijdonli odam esa o'z shanini saqlaydi.* (Tovus va odam qiyoslanyapti).

*Egrilik odamni qabohatga yetaklaydi, to 'g'rilik bo'lsa insonni qabohatga yetaklaydi.  
(Egrilik va to 'g'rilik zidlanyapti).*

**Eslatma!** bo'lsa. Qolipidagi gaplar tarkibida *bo'lsa* bog'lovchi hisoblanmaydi, bu qolip *-sa* shart mayli orqali hosil qilingan ergashgan qo'shma gap hisoblanadi.

*Inson sabr-bardoshli bo'lsa, o'z maqsadiga yetadi. Ergashgan qo'shma gap.*

**Eslatma!** , bo'lsa. Qolipidagi gaplar tarkibida *bog'lovchi* esa *bo'lsa* o'zi *bog'lovchi* hisoblanadi va *bog'langan* qo'shma gap qismlarini bog'lab kelgan.

*Nodon mol-dunyo yig'adi, aqli odam bo'lsa boshqalarga yordam beradi.*

**Eslatma! Yo'qsa, bo'lmasa** so'zlari ham bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lab keladi. Bunday vaqtida qo'shma gapning ikkinchi qismi boshida keladi, ulardan oldin *vergul* qoyiladi.

*Siz uni tartibga chaqirib qo'ying, bo'lmasa ustidan arz qilaman.*

*Uning aybi bor, yo'qsa o'zini bunday tutmas edi.*

## ERGASHGAN QO'SHMA GAPLAR

Ergashgan qo'shma gaplar doimo ikki qismdan tashkil topadi:

- 1. Bosh gap (hokim gap)** – Mazmuni izohlanayotgan gap. Belgisi -
- 2. Ergash gap (tobe gap)** – Bosh gapning mazmunini izohlayotgan gap. Belgisi -

**Eslatma!** Ergashgan qo'shma gaplar xuddi so'z birikmalariga o'xshaydi, ya'ni tobe va hokim qismlari bo'ladi.

## ERGASH GAPNI BOSH GAPGA BOG'LOVCHI VOSITALAR


- 1. Ergashtiruvchi bog'lovchilar** (sabab bog'lochilari, maqsad bog'lovchisi, shart bog'lovchilari, qiyos-chog'ishtiruv bog'lovchilari)
- 2. Ko'makchili qurilmalar** (Shuning uchun, shu sababli, shu tufayli)
- 3. –ki yuklamasi**
- 4. Deb so'zi**
- 5. –sa shart mayli**
- 6. Nisbiy so'zlar** (So'roq va ko'rsatish olmoshlari)

# ERGASHTIRUVCHI BOG'LOVCHILAR YORDAMIDA BOG'LANGAN QO'SHMA GAPLAR

1. Sabab bog'lovchilar : *chunki, negaki*
2. Maqsad bog'lovchisi : *toki*
3. Qiyos-chog'ishtiruv bog'lovchilar : *go'yo, go'yoki, xuddi*
4. Shart bog'lovchilar : *agar, agarda, gar, garchi, garchand, basharti, mabodo, modomiki.*


**Eslatma!** Yuqoridagi bog'lovchilar har doim ergash gap tarkibida keladi. Ular *Sabab ergash gap*, *o'xshatish ergash gap*, *shart ergash gap* yoki bitta qilib ***hol ergash gap*** deyiladi.

**1. Sabab bog'lovchilari – *chunki, negaki*** har doim ergash gapning boshida keladi va yozuvda ulardan oldin vergul qo'yiladi. Oldin bosh gap, keyin ergash gap keladi. *Sabab ergash gap* yoki ***hol ergash gap*** deyiladi.




*Ular mening aytganimni qilishdi, chunki men oilamizning kenjatoyiman.*

**2. Maqsad bog'lovchisi – *toki*** har doim ergash gap boshida keladi. Undan oldin vergul qo'yiladi. *Maqsad ergash gap* yoki ***hol ergash gap*** deyiladi. Oldin bosh gap, keyin ergash gap keladi.



*Bu masalani sinfda keng muhokama qilamiz, toki boshqa qaytarilmasin.*

**3. Qiyos-chog'ishtiruv bog'lovchilari – *go'yo, go'yoki, xuddi*** har doim ergash gap boshida keladi. Yozuvda ulardan oldin vergul qo'yiladi. Oldin bosh gap, keyin ergash gap keladi. *O'xshatish ergash gap* yoki ***hol ergash gap*** deyiladi.




*Artrofda sokinlik cho'kdi, go'yo butun shahar orom olmoqda.*

**Eslatma!** *Go'yo, go'yoki, xuddi* so'zlari sodda gap tarkibida qo'llangan bo'lsa, *o'xshatish-qiyoslash yuklamasi* hisoblanadi, bog'lovchi emas.

*Go'yo sharpa o'tganday bo'ldi. Otasining xuddi o'zi. O'zbekiston go'yoki jannat.*


**4. Shart bog'lovchilar – agar, agarada, gar, garchi, garchand, basharti, mabodo, modomiki.** Bular har doim ergash gapning boshida keladi. Oldin ergash gap, keyin bosh gap keladi. *Shart ergash gap yoki hol ergash gap* deyiladi.



*Agar kishida odob bo'lsa, ilm ham bo'lishi lozim.*

## **KO'MAKCHILI QURILMALAR YORDAMIDA ERGASHGAN QO'SHMA GAPLAR**

*Shuning uchun, shu sababli, shu tufayli, shu bois, shu boisdan* kabi ko'makchili qurilmalar bilan hosil qilinadi. Bular har doim bosh gapning boshida keladi. *Sabab ergash gap yoki hol ergash gap* deyiladi.




*Yozi bilan tinimsiz mehnat qildik, shuning uchun mo'l hosil oldik.*

## **-KI YUKLAMALI ERGASHGAN QO'SHMA GAPLAR YOKI KO'RSATISH OLMOSHLI ERGASHGAN QO'SHMA GAPLAR.**

**-ki** yuklamasi har doim bosh gapning oxirida uning kesimi keladi. Oldin bosh gap, keyin ergash gap keladi.



**Eslatma!** Bunday gaplarda bosh gap tarkibida ko'rsatish olmoshi qo'llangan bo'ladi. Ana shu ko'rsatish olmoshi qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan bo'lsa, ergashgan qo'shma gap shu gap bo'lagining nomi bilan ataladi.



**Shu, shunisi**

**Shuni**

**Shunga**

**Shundan**

**Shunday + ot**

**Shunday + fe'l**

**Shuki**

**Shundayki**

## Shundan iboratki

Shunisi aniqki, u sizdan ruxsat so 'rash uchun kelmagan.

Shuni doimo yodingizda tutingki, biz sizni yaxshi ko 'ramiz.

Shunga ishonchim komilki, qasd qilganlar past bo 'ladi.

Shunday odamlar borki, ular bilan gaplashib to 'ymaysan.

Shunday yashaylikki, hamma havas qilsin.

Umidimiz shuki, dunyoda tinchlik hukmron bo 'lsin.

Aytmoqchi bo 'lganim shundan iboratki, biz bu masalada bir qarorga kelishimiz kerak.

**Eslatma!** Ba'zan bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshi qo'llanmasligi mumkin. Shunda uni tiklab olamiz. Masalan,

*Odam borki, odamlarning naqshidir. (Shunday odam borki, odamlarning naqshidir).*

*Aminmanki, qonun tub burilish yasaydi. (Shunga aminmanki, qonun tub burilish yasaydi).*

*Angladimki, inson qobiliyati cheksiz ekan. (Shuni angladimki, inson qobiliyati cheksiz ekan.)*

## **DEB SO'ZI YORDAMIDA ERGASHGAN QO'SHMA GAPLAR**

**Deb** so'zi har doim ergash gap oxirida keladi. Oldin ergash gap keyin bosh gap keladi.



**Eslatma!** **Deb** yordamida ergashgan gapning ikki turi hosil bo'ladi:

**1. Maqsad ergash gap** – Bunda ergash gapning kesimi **-y, -ay, -yin, -ayin, -ylit, -aylik, -ng, -ing, -ngiz, -ingiz, -nglar, -inglar, -gin, -sin, -sinlar** – buyruq mayli shakllari; **-sa** shart mayli; **-a, -y, -r, -ar** kelasi zamon shakllari+ **deb** so'zi kelishi kerak.

*Shu mo 'jaz uyda chiroq yonsin deb, aziz zotlarga yondashdim. (Maqsad ergash gap). Bolam o 'qisa deb, ota kitob keltirdi. (Maqsad ergash gap).*

**2. Sabab ergash gap** – Bunda ergash gapning kesimi **-di, -b, -ib, -gan, -kan, -qan + deb** shaklida kelishi kerak.

*Sizni eshitgan deb, aytmagan edik. (Sabab ergash gap).*

*Mehmon keladi deb, dasturxon tuzatdik. (Sabab ergash gap).*

**Eslatma! Deb** ko'makchisini *uchun* ko'makchisi bilan almashtirish mumkin.

*Yovlar yakson bo'lsin deb* (*yakson bo'lsin urchun*), yigitlar jang boshladi.

### **-Sa VOSITASIDA ERGASHGAN QO'SHMA GAPLAR**

**-sa** ergash gap oxirida keladi. Oldin ergash gap, keyin bosh gap keladi. Ergashgan qo'shma gapning ikki xil turi hosil bo'ladi:

#### **1. Shart ergash gap**

#### **2. Payt ergash gap**

*Qorako'zni yana supurgi bilan ursang, ukalaringnikiga ketib qolaman.* (shart)

**Eslatma!** Agar bir voqea-hodisa ikkinchi voqea-hodisadan darak bersa (alomati bo'lsa) *payt ergash gap* hisoblanadi.


*Qaldirg'och pastlab uchsa, yog'ingarchilik bo'ladi.*

*Baliq tez-tez suv betiga sapchib chiqsa, yomg'ir yog'adi.*

*Ichlari achimasa, o'sha gapni gapirmas edi.*

### **NISBIY SO'ZLI ERGASHGAN QO'SHMA GAPLAR**

Nisbiy so'zlar deganda *so'roq va ko'rsatish olmoshlari* tushuniladi. So'roq olmoshlari ergash gap tarkibida, ko'rsatish olmoshlari esa bosh gap tarkibida keladi. Oldin ergash gap, keyin bosh gap keladi. Ergash gapning kesimi **-sa shart mayli** bo'ladi.



**Eslatma!** Bunda ham bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshi qaysi gap bo'lagi vazifasida kelsa, ergashgan qo'shma gap shu gap bo'lakning nomi bilan yuritiladi.

*Kim harakat qilsa, u baraka topadi.* (ega ergash gapli qo'shma gap);

*Kimning ko'ngli ochiq bo'lsa, uni xalq hurmat qiladi.* (to'ldiruvchi ergash gapli q. g.)

*Kimning ko'ngli ochiq bo'lsa, u ulug' martabaga erishadi.* (ega ergash gapli q.g.);

*Kimning ko'ngli ochiq bo'lsa, davralarning to'ri unikidir.* (kesim ergash gapli q. g.);

*Kimning ko'ngli ochiq bo'lsa, uning el o'rtasida martabasi ulug' bo'ladi.* (aniqlovchi);

*Qayerda ahillik bo'lsa, o'sha yerda yutuq bor. (hol ergash gapli qo'shma gap);*

*Qayerda ahillik bo'lsa, odamlar o'sha yerni makon qiladi. (to'ldiruvchi ergash g.q.g.)*

**Eslatma!** Nisbiy so'zlar ergashgan qo'shma gaplarda ham bosh gapdagi ko'rsatish olmoshi qo'llanmasligi mumkin. Uni tiklab aniqlasa bo'ladi.

*Nima ro'zg'orga kerak bo'lsa, darhol olamiz. (uni).*

*Nima senga zarar keltirsa, boshqalarga ravo ko'rma. (uni ravo ko'rma).*

*Kimki qasd etsa unga, kiysin pushaymondin kafan. (u kiysin).*

**Eslatma!** Testlarda **-sa** shart mayli yordamida ergashgan qo'shma gap so'ralsa, shart bog'lovchili (*agar, agarda*) va nisbiy so'zli (*kim - u*) ergashgan qo'shma gaplar olinmasligi kerak. Masalan,

*Agar gunohi bo'lsa, xalq oldida javob bergay.*

*Kim chaqqon va tez harakat qilsa, yutuq o'shaniki.*

*Boshingga tashvish tushmasa, qaytib kelmasding.*

**Eslatma!** Testlarda *havola bo'lakli qo'shma gaplar* bilan bog'liq savol keladi. **Havola bo'lakli qo'shma gaplar** deganda ergashgan qo'shma gaplarning ikki xil turi tushuniladi:

**1. –ki yuklamali ergashgan qo'shma gap.**

**2. Nisbiy so'zli ergashgan qo'shma gaplar.**

Bu ergashgan qo'shma gaplarning ikki turida ham bosh gap tarkibida ko'rsatish olmoshlari qo'llangan bo'ladi. Ana shu ko'rsatish olmoshlari **havola bo'lak** deyiladi.

*Shunday do'stlarimiz borki, ular bilan faxrlanamiz.*

*Kim ko'p kitob o'qisa, o'sha ko'p biladi.*

*Hunar shunday otdirki, u mingan kishini rohatga yetkazadi.*

*Kishi dardiga kim hamdard emasdir, kishi nazdida ul mard emasdir.*

**Quyidagi gap turlarini aniqlang.**

*Sen birodaringni qanchalik yaxshi ko'rsang, Tangri ham seni shunchalik yaxshi ko'radi.*

*To'g'ri til tosh yoradi, egri til esa bosh yoradi*

*Shuni doimo yodingda tutki, biz hammamiz seni yaxshi ko'ramiz.*

*Yozi bilan tinimsiz mehnat qildik, shu sababli mo'l hosil oldik.*

*Kishida odob bo'lsa, ilm ham bo'lishi lozim.*

*Odob shunday tojki, u aqlli, farosatli odamlar boshini bezaydi.*

*Odobli odam tabibga o'xshaydi, chunki u bilan suhbatlashish ko'ngildagi g'amni quvadi.*

*Ilm bir daraxt, odob esa uning mevasidir.*

*Odob ulug'lik va yuksaklik qasrining narvonidir.*

*Qaysi yerda ilm-u ma'rifat kuchli bo'lsa, o'sha yer baxt maskanidir.*

*Amir Temur o'g'lining qilich tutgan qo'li baquvvat bo'lsin deb, kecha-kunduz mashq qildirdi.*

*Shunday yaxshi odatlarimiz borki, ularga hurmat bilan qarash lozim.*

*Tilagim shuki, tog'a, ayam bilan ukalarim kishilarga muhtoj bo'lmasin.*

*Men kuyladim goh dilda qadar, Goh sevinib she'r to'qiymen men*

*Jondan ortiq narsa yo'q, lekin do'stlar uchun jonimiz fido*

*Kishini tabiat vujudga keltiradi, ammo uni jamiyat kamol toptiradi.*

*Nuri goh sevinib, shirin xayollarga botadi, goh butun vujudini titroq bosadi.*

*Olloyorning eng zo'r sifati shuki, uning qo'lida yig'layotgan chaqaloqlar birdan yupanadi-qoladi.*

*Oy yoritadi, lekin isitmaydi.*

*Adab kichkinalar mehrini ulug'lar ko'ngliga soladi va u mehr kattalar ko'nglida abadiy qoladi.*

*Kimning qalbi pok bo'lsa, u to'g'ri va baxtli hayot kechirishga haqli.*

*Jaloliddin Manguberdi mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashda jasorati tufayli buyuk vatanparvar va milliy qahramon sifatida Sharq-u G'arbda dong taratdi.*

*Quvonarlisi shundaki, Fitratning kitobi yangi milliy musiqashunosligimizga asos soldi.*

## **ERGASHGAN QO'SHMA GAPLARNING SODDA GAP BILAN MA'NODOSHLIGI**

Ergashgan qo'shma gaplarning ikki turini sodda gapga aylantirish mumkin.

**1. –ki** yuklamali ergashgan qo'shma gaplar;

**2. Nisbiy so'zli** ergashgan qo'shma gaplar.

Bu ergash gapli qo'shma gaplarning ikki turida ham bosh gapda ko'rsatish olmoshi qo'llangan bo'ladi. Ana shu ko'rsatish olmoshining o'rniga butun bir ergash gapni qo'yamiz. Bunda ergash gap oddiy gap bo'lagiga aylanadi, qo'shma gapimiz esa sodda gapga aylanadi. Bunda bosh gapdagi ko'rsatish olmoshining qaysi gap bo'lagi vazifasida kelganligi juda muhim.

**1. Shuni sezdimki, ular juda inoq ekan. (qo'shma gap)**

*Ularning juda inoq ekanligini sezdim.(sodda gap).*

**2. Kim harakat qilsa, u baraka topadi. (qo'shma gap).**

*Harakat qilgan baraka topadi. (sodda gap).*

*3. Kim oldin musht ko 'tarsa, u ojiz bo 'ladi. (qo'shma gap).*

*Oldin musht ko 'targan ojiz bo 'ladi. (sodda gap).*

*4. Siz kimga ishonch bildirsangiz, men uni sherik qilaman. (qo'shma gap)*

*Siz ishonch bildirganni men sherik qilaman. (sodda gap).*

## **ERGASHGAN QO'SHMA GAPLARNING TURLARI**

**Eslatma!** Kesim, ega, to'ldiruvchi va aniqlovchi ergash gaplar ikki xil hosil qilinadi.

**1. -ki** yuklamasi yordamida. Oldin bosh gap, keyin ergash gap keladi.

**2. Nisbiy so'zlar** yordamida. Oldin ergash gap, keyin bosh gap keladi. Bularda bosh gapdagi ko'rsatish olmoshlarining qaysi gap bo'lagi vazifasida kelayotganligi ergash gapning turini belgilab beradi.

*Umidimiz shuki, Sizlar baxtli bo 'linglar.*

*Shuni doimo yodingda tutki, biz hammamiz seni yaxshi ko 'ramiz. (to'ldiruvchi ergash g)*

*Shunday odam borki, odamlarning naqshidir. (to'ldiruvchi ergash gapli q. g.)*

*Shundan ehtiyyot bo 'lish lozimki, hamrohingiz aslo nodon bo'lmasin. (to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap).*

*Shunisi quvonarlik, sinfdagi o'quvchilarining hammasi bir-biri bilan juda ahil. (ega)*

*Kimki boshqalarga rahm-u shafqat qilmasa, unga ham hech kim rahm-u shafqat qilmaydi. (to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap).*

**Eslatma!** Kesim ergash gap bosh gapga, asosan, **-ki** yuklamasi yordamida bog'lanadi.



**Shuki**

**Shumidiki**

**Shu ekanki**

**Shundayki**

**Shundan iboratki**

**Shu bo'ldiki**

**Shul erurki**

*Sizlrga muborak topshiriq shuki, har biringiz alohida-alohida ketasiz.*

*Toleyim shulki, jahonda bir guliston tanladim.*

*Donolarning o'giti shundayki, so'zning lazzati eshitishdadir.*

*Buning natijasi shu bo'ldiki, to'laganning qanshariga musht tushdi.*

**Eslatma!** Hol ergash gapli qo'shma gapga quyidagi vositalar yordamida bog'lanadi.

**1. -ki yuklamasi** yordamida.

*Kun shu.qadar isidiki, chumchuqlarning ovozi chiqmay qoldi.*

**2. Nisbiy so'zlar** yordamida.

*O'simlikni qancha parvarish qilsa, shuncha.o'saveradi.*

**3. -sa shart mayli** yordamda.

*Dutor chalib o'tirsam, tori uzilib ketdi.*

**4. -deb** so'zi yordamida:

*Sizni qo'rqib ketmasin deb, kechqurun bezovta qilmadik.*

**5. Shuning uchun, shu sababli, shu tufayli** ko'makchili qurilmalar yordamida:

*U kelmadi, shuning uchun tadbir o'tkazilmaydi.*

**6. Agar, gar, garchi, garchand, agarda** shart bog'lovchilari yordamida:

*Agar yurakda quvvat bo'lmasa, tanada ham quvvat bo'lmaydi.*

**7. chunki, negaki** sabab bog'lovchilari:

*Oyna opa xatni oxirigacha o'qiy olmadi, chunki uyning eshigini kimdir taqillatdi.*

**8. Toki maqsad bog'lovchisi** yordamida:

*Vijdonni asrang har nedan ortiq, toki avlodlarga yetolsin omon.*

**9. Go'yo, go'yoki, xuddi** qiyos-chog'ishtiruv yordamida:

*Misralarda so'zlar gavhar kabi yonadi, go'yo yangi ranglar, yangi jilvalar bilan porlaydi.*

## **BOG'LOVCHISIZ QO'SHMA GAP**

Tarkibidagi sodda gaplar mazmunan bog'liq bo'lib, maxsus bog'lovchi vositalarsiz faqat ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplar **bog'lovchisiz qo'shma gaplar** deyiladi. Ular qolipi quyidagicha:



**Eslatma!** Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlarini yozuvda ajratish uchun *vergul, tire, ikki nuqta, nuqtali vergul* kabi tinish belgilari ishlataladi.

**1. Vergulning ishlatalishi** - Qo'shma gap qismlari bir paytda yoki ketma-ket sodir bo'ladigan voqeа-hodisalarni ifodalasa, ular orasiga vergul qo'yiladi.

1. *Yigitlar daraxtlarning ostini yumshatdilar, qizlar mifik hovlisini supurdilar.*

2. *Avval ular bizga yetib olishsin, keyin birga jo'naymiz.*

3. *Kuz keldi, yig'im-terim ishlari boshlandi.*

4. Oyim endi o'rnidan turayotgan edi, eshik shaxt bilan ochildi.
5. Ruboyni ichida o'qidi, yuzini tabassum qopladi.
6. Yana uvlar dahshat shamoli, Ko'kni qora bulut quchadi.
7. Bulbul sayrar, chumchuq chirqirar, Xabar berar asl zotidan.
8. Sidiqjon to'xtadi, orqasidan kimdir kelayotgan edi.
9. Sabr bilan bog'liq ish ochilur, Ishda oshiqqan ko'p toyilur.
10. Tomlardagi bug'doylar boshoq chiqaradi, oralarida lola-qizg'aldoqlar qip-qizil bo'lib ochiladi.
11. Sen o'g'limsan, xotining kelinim.
12. Havo ochiq, quyoshning iliq nuri qirov bosgan manzaralardan yengil bug' ko'tariladi.
13. Kechasi shamol tindi, yo'l azobidan horigan kishilar qattiq uyquga ketdilar.
14. Qishloqlar bir-biriga o'xshamaydi, hammasining o'ziga xos arxitikturasi bor.
15. Yigit qulochkashlashib ofitserning kallasiga solmoqchi edi, Ahmadjon qo'lini tutdi.
16. Kumush choyshab yopib dalalar, qor qo'ynida uxbab qoladi.
17. Bora-bora ularning ham ko'zi ochiladi, past-balandni ajratib olishadi.
18. Yer tosh qotgan, qor moylanmagan aravaday g'ichirlaydi.
19. Bir vaqt dasturxon yozildi, turli taomlar kirdi.

**2. Ikki nuqtaning ishlatilishi** – Qo'shma gaplar tarkibidagi keyingi sodda gap oldingi sodda gapdan anglashilgan fikrning **sababini, natijasini** bildirsa, yoki keyingi sodda gap oldingi sodda gapdan anglashilgan fikrni **izohlab** kelsa, kesimini to'ldirib kelsa ikki nuqta qo'yiladi. (*Demak, 1. Qo'shma gapda ikkinchi qism birinchi qismdan anglashilgan mazmunning ro'y berish sababini ko'rsatadi; 2. Qo'shma gapda ikkinchi qism birinchi qism tarkibidagi otni aniqlaydi*).

1. Bizning qarorimiz shu: hasharda barchamiz faol ishtirok etamiz.
2. Orzum shul, o'chmasin yongan charog'ing.
3. Mening bir jaydari falsafamdir shu: Hargiz iltimosga kuning qolmasin.
4. Qiz uni ushlab olgani urindi, juda qiynalib ketdi: qo'llariga tikan kirdi, yuzi va bilaklari tirmalandi...
5. Faqat bitta iltimos: bir bayt o'qiyan, shuni yaxshilab eshititing.
6. Qayerdadir xo'roz qichqirdi: tong otishi yaqinlashgan.
7. Urilmoq ham foyda: pishiq bo'lasan, tajriba hosil qilasan.
8. Oltmishga kirib bildim: umrim bekorga o'tmabdi.
9. Kurashda bir tabiat qonuni bor: polvon, davrada mag'lub bo'lsa, taqdirga tan berib ketmaydi.

10. *Bularni ko'rib hamma ishondi: Sobirjon bugun, albatta, g'alabaga erishadi.*
11. *Shoazim o'ng'aysizlanib yerga qaradi: hozir uning ko'nglida bitta bahs sig'mas edi.*
12. *Borliq jim: har bitta darchada zangor shu'lalar porlaydi.*
13. *Bildi ota: foydasiz qiynamoq.*
14. *Xushxabar olib keldim: garnizon yanchildi.*
15. *Osmonda na oy, na yulduz ko'rinaridi: havo buzuq edi.*
16. *Elning bir so'zi bor: o'zingga ehtiyot bo'l, qo'shningni o'g'ri tutma.*
17. *Uning otasi bir yilda bog'ni yashnatib yubordi: yangi daraxtlar ekdi, go'zal gulzorlar yaratdi*
18. *Dam o'tmay Chotqol yonbag'irlaridagi go'zal vohada oqshom o'z husni-jamolini namoyon etdi: shahar va qishloqlarda yulduzsimon elektr chiroqlari ko'zni qamashtirib porladi.*
19. *Bugun havo ochiq: derazalarni lang ochib qo'ysa ham bo'ladi.*

**3. Tirening ishlatilishi** – Qo'shma gap qismlari orasida **o'xshatish, zidlash, shart** kabi munosabatlar ifodalansa, ular orasida *tire* qo'yiladi.

1. *Hamal keldi - amal keldi.*
2. *Yuragida qanday dard bor-mana bu menga sir.*
3. *To'rt mashina o'g'it yubordik — fermerlarga vaqtida taqsimlansin.*
4. *Eshakni yaydoq minib bo'lmaydi — yiqladi kishi.*
5. *Qor yog'di — don yog'di.*
6. *Yurgan daryo — o'tirgan bo'yra.*
7. *G'animlar duch kelar - jang bo'lar puxta.*
8. *Ko'z qo'rkoq — qo'l botir.*
9. *Vaqting ketdi — baxting ketdi.*
10. *Ter to'kildi — dur yetishtirildi.*
11. *Doston aytdim — kitob bo'ldi.*
12. *Egri ozadi — to'g'ri o'zadi.*
13. *Biroz qor yog'di — sovuq bo'lmadi.*
14. *Suv keldi — nur keldi.*
15. *Rais kirib keldi — majlis boshlandi.*
16. *Said Jalolxon tovush chiqarmay uning o'rniga o'tirdi — u ko'nmadi.*
17. *To'gri bo'ling — bexavotir bo'lasiz, maqtanchoq bo'lmanq — xijolat tortmaysiz.*
18. *Men tirikman — o'lja bo'lmaydi otim.*
19. *Qirq to'rt so'mdan yigirma yetti so'mni olib tashladik — o'n yetti so'm qoldi.*
20. *Bizlar xizmatkor odam — nimani bilaylik, to'ram.*
21. *Jismimiz yo'qolur — o'chmas nomimiz.*
22. *Istiqlol keldi — o'zligimizni angladik, qadriyatlarimiz tiklandi.*
23. *Ishning ko'zini bil — dala ham obod, choyxona ham.*
24. *Ariqlar chiqardik — yovlar quritdi.*

**4. Nuqtali vergulning ishlatilishi** – Qo’shma gap qismlari mazmunan yaqin bo’lmanan holda nuqtali vergul qo’yiladi. Shuningdek, bir necha tinish belgilari qo’llangan hollarda ham nuqtali vergul qo’yiladi.

1. *Xadicha xola bolalik chog’idagi singari uning beliga non tugib berdi, peshonasidan o’pdi, duo qildi; irim qilib o’zi kuzatgani chiqmadi*
2. *Kampirning jig’i-biyroni chiqdi; ombordan olib chiqqan bir savat paxtasi bilan chig’irig’ini ko’tarib, vaysaganicha, uyiga kirib ketdi.*
3. *Navoiy Husayn Boyqoro qoshiga kirib vaziyatni tushuntirdi; isyonchi valiahdi bilan mustahkam sulh barpo etish kerakligini talab qildi.*
4. *U biladi, ishonadi; singlisi o’zi ko’rmasa yoki aniq bilmasa, uydirma-yu mishmishlarga ishonadigan ayol emas.*
5. *Qish oxirlari, qorlar erigan, hamma joyda loygarchilik; yo’lda arava tugul, piyoda ham zo’rg’a, qo’rqa-pisa qadam bosadi.*

**Eslatma!** Ohang yordamida bog‘langan qo’shma gap qismlari o’rtasida turli xil ma’no munosabatlari bo‘ladi. Masalan,

**Zidlik:** Ko‘prikni biz qurdik, dushmanlar o‘tdi. (*biz qurdik, ammo dushmanlar buzdi*)

**Sabab:** Qo‘ng‘iroq chalindi, dars boshlandi. (*chalindi, shuning uchun dars boshlandi*)

**Payt:** Dalasida o’smas tikonlar, cho’llarida chopmas ilonlar. (ikki ish-harakat bir vaqtida yuz beradi.)

## QO’SHPMA GAP TURLARINING MA’NODOSHLIGI

**Eslatma!** Qo’shma gap qismlari o’rtasida sabab-natija (bir sodda gap sababni, ikkinchisi esa undan kelib chiqqan natijani bildiradi) munosabati mavjud bo‘lsa, unday qo’shma gaplar ergash gapli qo’shma gap shaklida ham, bog‘langan qo’shma gap shaklida ham, ohang yordamida bog‘langan qo’shma gap (bog’lovchisiz qo’shma gap) shaklida ham ifodalanishi mumkin. Masalan:

*Paxtalar qiyg’os ochildi, terim avjiga chiqdi.*

*Paxtalar qiyg’os ochildi, shuning uchun terim avjiga chiqdi.*

*Paxtalar qiyg’os ochildi va terim avjiga chiqdi.*

**Eslatma!** Zidlik, sabab, shart, payt munosabatlari bog’lovchisiz, bog‘langan, ergashgan qo’shma gap gaplar bilan ifodalanishi mumkin. Shunga ko’ra, ular bir-biriga ma’nodosh bo’lishi mumkin. Masalan:

Bir kishi ariq ochadi, ming kishi suv ichadi – ***bog’lovchisiz qo’shma gap***

Bir kishi ariq ochadi va ming kishi suv ichadi – ***bog’langan qo’shma gap***

Bir kishi ariq ochsa, ming kishi suv ichadi – *ergashgan qo'shma gap*.

## MURAKKAB QO'SHMA GAP (qo'shimcha ma'lumot)

**Eslatma!** Turli bog'lovchi vositalar yordami bilan o'zaro bog'langan uch va undan ortiq gaplarning bir butunligi ***murakkab qo'shma gap*** sanaladi.

**Eslatma!** Murakkab qo'shma gaplar to'rt guruhga bo'linadi:

- 1. Bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gaplar;**
- 2. Bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gaplar;**
- 3. Aralash murakkab qo'shma gaplar;**
- 4. Qismlari uyushgan murakkab qo'shma gaplar.**

**1. BIR NECHA ERGASH GAPLI MURAKKAB QO'SHMA GAP** - Bunda bosh gap bitta, ergash gap esa ikki va undan ortiq bo'ladi. Masalan:

*Reja bajarilsa, dasturxon mo'l bo'lsa, yor-u do'st, birodarlar qalin bo'lsa, tantanalar qishgacha davom etaveradi.*


**Eslatma!** Bir necha ergash gapli qo'shma gap ikki xil qolipda keladi:

**I.** Ergash gaplar oldin, bosh gap keyin:



*Odamlarimizning huquqiy ongi yuksak bo'lsa, har kim o'z haqini tanisa, o'zini-o'zi himoya qilishni bilsa, demokratik jamiyatga erishgan bo'lamiz.*


**II.** Bosh gap oldin, ergash gaplar keyin:



*To'g'risi shuki, keksa professor unga yoqib qolgan edi, uning samimi maslahatlaridan qoniqadi, doim bu oqil odamga munosib bo'lishga tirishar edi.*


**2. BIR NECHA BOSH GAPLI MURAKKAB QO'SHMA GAP** – Bunda ergash gap bitta, bosh gaplar ikki va undan ortiq bo'ladi. U ham ikki xil qolipda bo'ladi:

**I.** Bosh gaplar oldin, ergash gap keyin:



*Boshimda o'ynar qamchilar, qon ko'zlarimdan tomchilar, Bir benavo gul yanchilar, ozodkorim kelmasa.*

**II.** Ergash gap oldin, bosh gaplar keyin:



*Kimki umid bilan daraxt o'tqazsa, bir kuni kelib bu daraxt shig'il meva beradi, uning barakotidan el bahramand bo'ladi, ekkan egasiga olqish-u rahmatlar yog'diradi.*

**3. ARALASH MURAKKAB QO'SHMA GAP** – Bunda ergashgan, bog'langan va bog'lovchisiz qo'shma gaplar aralashib keladi. Qo'shma gaplar ikki xil aralashadi:

**I. Ergashgan qo'shma gap bilan bog'langan qo'shma gap aralashadi.**

**II. Bog'langan qo'shma gap bilan bog'lovchisiz qo'shma gap.**

Bahor kelsa, kunlar isidi va gullar ochildi. – **Aralash murakkab qo'shma gap**

Bahor keldi, kunlar isidi va gullar ochildi. – **Aralash murakkab qo'shma gap.**

Bahor kelsa, kunlar isiydi, gullar ochiladi. (**Bir necha bosh gapli murakkab qo'shma g**)

Aralash murakkab qo'shma gapga misollar:

Akang armiyadan kelsa, issiqxonani ishga solamiz, lekin sen akangga yordamchilik qilasan.

Ko'lga yetib kelsak, birdaniga miltiq gumburladi va suv yuzida pitirlayotgan ikki-uchta o'rdak ko'rindi.

Shuni unutmaki, sen yer farzandisan va yerni ardoqlash, uni obod qilish sening vazifangdir.

Bilginki, hunarsiz kishi quruq savlatdir quruq savlat esa qotib turgan suratga o'xshaydi.

Uni tanib olish qiyin edi, chunki yelkalari kengaygandi, qiyofasi ancha keskinlashgandi va katta ko'zлari dumaloq shakl olgan edi.

Agar kishi o'z hirslaridan ustun tura olsa, u o'zidagi bor nuqsonlarni yo'q qiladi va ular yaxshi sifatlarga aylanadi

**Eslatma!** Ba'zan ergashgan qo'shma gap bilan bog'lovchisiz qo'shma gap ham aralashib kelishi mumkin. Buni tinish belgisi orqali aniqlanadi. Masalan,

*She'r shuning uchun muqaddaski, uning bir vazni ilohiy, bir vazni insoniydir; uning bir satri osmoniy, bir satri zaminiydir.*

**4. QISMLARI UYUSHGAN MURAKKAB QO'SHMA GAP** – Bir turdag'i uch va undan ortiq sodda gaplardan tarkib topadi. Qismlari uyushgan murakkab qo'shma gaplarning qismlari ikki xil uyushadi:

**I. Hammasi bog'lovchisiz.**

**II. Hammasi bog'langan.**

*Umr o'tar, vaqt o'tar, xonlar o'tar, taxt o'tar, omad o'tar, baxt o'tar.*

*Dam yomg'ir yog'adi, dam osmonni bulut qoplaydi, dam quyosh chiqadi.*

Quyidagi murakkab qo'shma gap turlarini aniqlang.

*Umrimning anchagina qismi harbiy ishlarda o'tgan, men bu yerda hech qanday qiyinchilik tortmayman, lekin sog'ligim o'z hukmini o'tkazib turibdi.*

*Kimki ota-onasini hurmat qilsa, u boshqalardan izzat topadi, el orasida yaxshi deb nom qozonadi.*

*Shirinsuxanlik shunday boylikki, u senga obro' keltiradi, u orqali bitmagan ishlaring bitadi, do'stlaring ko'payadi.*

*Agar kishi o'z hirslaridan ustun tura olsa, u o'zidagi bor nuqsonlarni yo'q qiladi va ular yaxshi sifatlarga aylanadi.*

*Dunyo bilar mehnatsiz bir damimiz yo'q, erkinlikdan balandroq bir g'amimiz yo'q, eshitsinlar, hech kimsadan kamimiz yo'q.*

## **KO'CHIRMA GAPLI QO'SHMA GAPLAR**

So'zlovchi ba'zan o'z nutqida birovning gapini aynan keltiradi. Birovning aynan keltirilgan gapi *ko'chirma gap*, so'zlovchining gapi esa *muallif gapi* deyiladi. Ikkalasi birgalikda ***ko'chirma gapli qo'shma gap*** deyiladi.

"*Intilganga tole yor*", – deydi xalqimiz.

***Eslatma!*** Ko'chirma gapli qo'shma gaplar doimo ikki qismdan iborat bo'ladi:

I. Muallif gapi (M)                           II. Ko'chirma gap (K)

***Eslatma!*** Muallif gapi (M) va ko'chirma gap (K) bir-biriga nisbatan turlicha joylashishi mumkin, bunda tinish belgilari quyidagicha ishlatiladi.

### **1. Muallif gapi oldin, ko'chirma gap keyin kelishi mumkin.**

**I. M: "K".** *O'qituvchi dedi: "Bugun test bo'ladi".*

Bunday gapda muallif gapidan so'ng ikki nuqta qo'yilib, darak shaklidagi ko'chirma gap bosh harf bilan qo'shtirnoq ichida yoziladi, qo'shtirnoqdan so'ng nuqta qo'yiladi.

**II. M: "K?"** *O'qituvchi dedi: "Kim navbatchi?"*

**M: "K!"** *Shoir dedi: "Oh, qanday go'zal bu olam!"*

Bunday gapda muallif gapidan so'ng ikki nuqta qo'yilib, so'roq yoki undov gap shaklidagi ko'chirma gap qo'shtirnoq ichida beriladi, so'roq yoki undov belgisi qo'shtirnoq ichida beriladi va qo'shtirnoqdan so'ng nuqta qo'yilmaydi.

### **2. Ko'chirma gap oldin, muallif gapi keyin kelishi mumkin.**

**I. "K", – m.** *"Bugun test bo'ladi", – dedi o'qituvchi.*

Bunday gapda darak shaklidagi ko'chirma gap bosh harf bilan qo'shtirnoq ichiga kiritiladi, qo'shtirnoqdan so'ng *vergul*, *tire* qo'yilib, muallif gapi kichik harf bilan davom ettiriladi va undan keyin nuqta qo'yiladi.

**II. “K?” – м.** “*Kim navbatchi?*” – *so’radi o’qituvchi*.

**“K!” – м.** “*Oh, qanday go’zaol olam!*” – *dedi shoir*.

So’roq yoki undov shaklidagi ko’chirma gap bosh harf bilan qo’shtirnoq ichida beriladi, *so’roq* yoki *undov* belgilari qo’shtirnoq ichida beriladi, qo’shtirnoqdan so’ng *tire* qo’yilib muallif gapi kichik harf bilan davom ettiriladi va gap oxirida nuqta qo’yiladi.

### **3. Muallif gapi ko’chirma gap ichida kelishi mumkin.**

**I. “K, - м. – K”.** «*Husayin voiz Koshify Sharqda malum va mashhur shaxs,— deb yozadi Najmiddin Komilov «Tafakkur karvonlari» asarida. —U Navoiyga bag’ishlab kitob yozgan, uning mehrini qozongan yaqin kishisi, muxlisi, do’sti edi».*

*yoki “K, - м, - k”.* «*Bu in’omning, — dedi keliniga, —teran ma’nosi bor*».

Bunday gapda qo’shtirnoq ochilib ko’chirma gapning uzilgan joyida *vergul* va *tire* qo’yilib, muallif gapi kichik harf bilan yoziladi, undan so’ng *nuqta* va *tire* yoki *vergul* va *tire* qo’yilib, ko’chirma gapning qolgan qismi (oldin *nuqta* va *tire* qo’yilgan bo’lsa kata harf bilan, *vergul* va *tire* qo’yilgan bo’lsa kichik harf bilan) yoziladi.

**Eslatma!** Agar so’roq yoki undov gap bo’lsa, *so’roq* va *undov* belgilari qo’shtirnoq ichiga kiritilib, oxiriga hech qanday tinish belgisi qo’yilmaydi.

**“K, - м, - k?” “Kim bugun, - so’radi o’qituvchi, - navbatchi?”**

**“K, - м, -k!” “Oh, qanday go’zal, - dedi shoir, - bu olam!”**

### **4. Ko’chirma gap muallif gapi orasida kelishi mumkin.**

**I. M: “K”, - м.** O’qituvchi: “bugun majlis bo’ladi”, - dedi.

Muallif gapining uzilgan joyida ikki nuqta qo’yiladi. Darak shaklidagi ko’chirma gap bosh harf bilan qo’shtirnoq ichiga kiritiladi, qo’shtirnoqdan so’ng *vergul* va *tire* qo’yilib, muallif gapining qolgan qismi kichik harf bilan davom ettiriladi va undan so’ng *nuqta* qo’yiladi.

**II. M: “K?” – м.** O’qituvchi: “*Kim navbatchi?*” – dedi.

**M: “K!” – м.** Shoir: “*Oh, qanday go’zal bu olam!*” – dedi.

Muallif gapining uzilgan joyida ikki nuqta qo’yiladi. So’roq yoki undov shaklidagi ko’chirma gap bosh harf bilan qo’shtirnoq ichiga kiritiladi, qo’shtirnoqdan so’ng *tire* qo’yilib, muallif gapining qolgan qismi kichik harf bilan davom ettiriladi va undan so’ng *nuqta* qo’yiladi.

Quyidagi gaplarning kerakli tinish belgilarini to’g’ri qo’ying:

1. *Siz Amerikada o’qiysizmi* deb so’radi Aziza

2. Qaynonasi Bibixonim *Bu in'omning teran ma'nosi bor dedi sirg'alarmi kelinining qulog'iga taqib qo'yar ekan*

3. Bir jihatdan Inobatxon haq, Erkinjon dedi u jiddiy

4. *Husayin voiz Koshify Sharqda malum va mashhur shaxs deb yozadi Najmuddin Komilov «Tafakkur karvonlari» asarida U Navoiyga bag'ishlab kitob yozgan, uning mehrini qozongan yaqin kishisi, muxlisi, do'sti edi*

## **KO'CHIRMA GAPNI O'ZLASHTIRMA GAPGA AYLANTIRISH**

So'zlovchi o'z nutqida o'zganing gapidan ikki xil foydalanadi:

1. O'zgarishsiz nutqqa olib kiradi – Bu ko'chirma gapli qo'shma gap.

2. O'zga gapning mazmunini saqlab, shaklini o'zgartirgan holda nutqqa olib kiradi – bu o'zlashtirma gap deyiladi.

**Eslatma!** Ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirilganda quyidagi o'zgarishlar yuz beradi:

**1.** Ko'chirma gapli qo'shma gap sodda gapga aylanadi.

*"O'g'lim o'qiyapti", - dedi ayol. Ayol o'g'lining o'qiyotganligini aytdi.*

**2.** Darak shaklidagi ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirsak, ko'chirma gapning *kesimi* tushum kelishigidagi sifatdosh yoki harakat nomi bilan ifodalangan to'ldiruvchiga aylanadi. Bunda ko'chirma gapning kesimini to'ldiruvchiga aylantirish uchun unga *-lik, ekanlik* shakllari qo'shiladi.

Ko'chirma gapning *egasi qaratqich aniqlovchiga* aylanadi. Muallif gapining egasi o'zlashtirma gapning egasi bo'lib keladi. Kesim vazifasidagi *dedi* so'zi *aytdi* so'zi bilan almashib o'zlashtirma gapning kesimi bo'lib keladi.

***"Mehmonlar ketishdi"*, - dedi Saida.**

*Saida mehmonlarning ketganini aytdi.*

**3.** Agar ko'chirma gap so'roq yo buyruq shaklida bo'lsa, o'zlashtirma gapda darak gapga aylanadi.

***"Salima qanday o'qiyapti?" – so'radi onasi.***

*Onasi Salimaning qanay o'qiyotganligini so'radi.*

***"Topshiriqni bajar!" – dedi rais.*** *Rais topshiriqning bajarilishini aytdi.*

**4.** Agar ko'chirma gap so'roq shaklida bo'lsa, ***undalma*** chiqish kelishigidagi *to'ldiruvchiga*, buyruq shaklida bo'lsa undalma jo'naliш kelishigidagi *to'ldiruvchiga* aylanadi.

**"Salima, qanday o'qiyapsan?" – so'radi onasi.**

*Onasi Salimadan qanday o'qiyotganligini so'radi.*

**"Yigitlar, topshiriqni bajaring!" – dedi rais.**

*Rais yigitlarga topshiriqni bajarishini aytdi.*

**5.** Ko'chirma gapda ega II shaxs kishilik olmoshi bo'lsa, o'zlashtirma gapda I shaxs kishilik olmoshiga aylanadi.

**"Sizlar bir oilaning farzandisizlar", – dedi rais.**

*Rais bizga bir oilaning farzandlari ekanligimizni aytdi.*

**6.** Ko'chirma gapda undov so'zlar yo kirish so'zlar bo'lsa, o'zlashtirma gapda ular tushib qoladi.

**"Bay-bay, mazali ovqat!" – dedi mehmon.** *Mehmon ovqatning mazali ekanligini aytdi.*

**"Afsuski, endi kech", - dedi otasi.** *Otasi endi kech ekanligini aytdi.*

**7.** Ko'chirma gap o'zlashtirma gapga aylantirilganda qo'shtirnoq ishlatilmaydi.

**"Sen do'st emassan", - dedi Iskandar eka.**

*Iskandar aka mening do'st emasligimni aytdi.*

***Eslatma!*** Ba'zan ko'chirma gap bog'langan, bog'lovchisiz yoki ergashgan gap bo'lishi mumkin.

**"So'z san'atining qudrati shundaki, u hayotda bo'lмаган narsaga jon kiritadi", - dedi A.Muxtor.**

**"Biz tinchlik daraxini ekdisik va uni bo'ronlardan, dovullardan asradik", - dedi Muhammad Ali.**

Xalqimiz dedi: "Avval o'yla, keyin so'yla".

***Eslatma!*** Ba'zan ko'chirma gap murakkab qo'shma gap bo'lishi mumkin.

*Muallif yozadi: "Onam xursand edi, meni bag'rige bosdi, lekin ko'ngli notinch edi".*

## MATN

***Eslatma!*** Agar sodda gaplar soni ikkita bo'lsa qo'shma gap hisoblanadi. Agar gap uch va undan ortiq bo'lsa murakkab qo'shma gap hisoblanadi.

**Eslatma!** Bir nechta gaplarning o'zaro gramatik va mazmuniy yaxlitlikka ega bo'lgan qo'shma gaplarga nisbatan yozma va og'zaki nutq parchasi **mikromatn** deyiladi.

**Eslatma!** Bir mazmuniy mavzu ostida birlashgan bir necha mikromatnlar esa **makromatn** deyiladi.

*M: A.Qahhorning "O'g'ri" hikoyasida ishtirok etgan barcha miktomatnlar "o'grilik" umumiy mavzusini ostida birlashgan.*

**Eslatma!** Matnning eng kichik birligi **gap** hisoblanadi. Matn tarkibidagi gaplar quyidagilar bilan bog'lanadi:

1. Bog'lovchilar yordamida
2. Bog'lovchi vazifasidagi ayrim so'zlar yordamida
3. Takrorlar yordamida
4. Olmoshlar yordamida
5. Sinonimlar yordamida

*Karimjon litesyda katta hurmatga ega. U jamoat ishlarida ham faol qatnashadi.*

**Eslatma!** Mikromatnni hosil qilishda takrorlar eng muhim vositadir, chunki u ham gaplarni bog'lovchi vosita hisoblanadi, ham uslubiy bo'yoqdorlik hosil qiladi.

*Olti oykim, she'r yozmayman, yuragim zada,  
Olti oykim, o'zgalarga tilayman omad.  
Olti oykim, do'stlarim ham pana-panada  
Iste'dodim so'nganidan qilar karomat. (A. Oripov).*

**Eslatma!** Ba'zan takrorlar gap oxirida qo'llanilishi ham mumkin.

*Angladimki, olamda  
Yurt tanho, Vatan tanho  
Band etgan xayolimni  
Tengsiz shul chaman tanho. (A.Oripov)*

### **Nutq uslublari haqida qo'shimcha ma'lumot**

Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma'lum soha doirasiga, ma'lum nutqiy vaziyatga xoslangan ko'rinishi **nutq uslubi** hisoblanadi.

**Eslatma!** So'zlar ham ma'lum nutq uslubiga xoslanish- xoslanmaslik belgisiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

**1.** Uslubiy xoslangan so'zlar – ayrim nutq uslubi doirasidagina qo'llanadi.

**2.** Uslubiy betaraf so'zlar – barcha uslublarda teng qo'llaniladi.

Nutq uslublarining besh turi mavjud:

**1. So'zlashuv uslubi** - oilada, ko'cha-ko'yda kishilarning fikr almashishi jarayonida qo'llaniladigan nutq uslubi so'zlashuv uslubi sanaladi. U adabiy va oddiy so'zlashuv uslublarini o'z ichiga oladi.

Adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilingan so'zlashuv uslubi adabiy so'zlashuv uslubi, bunday xususiyatga ega bo'limgan so'zlashuv uslubi esa oddiy so'zlashuv uslubi hisoblanadi.

**Eslatma!** So'zlashuv uslubining har ikki turi ko'pincha dialog shaklida ro'yobga chiqadi. Ikki shaxsning o'zaro so'zlashuvi dialogik nutq sanaladi. So'zlashuv uslubida so'zlar ko'pincha *kinoya*, *piching*, *qochirimlarga* boy bo'ladi. Bu uslubning yana bir o'ziga xos xususiyati — *erkinligidir*.

**2. Publitsistik uslub** - Ommaviy axborot vositalari uslubi publitsistik uslub sanaladi.

**Eslatma!** Publitsistik uslubga xos asosiy xususiyatlar:

- axborot berish va ta'sir qilish ;
- soddalik;
- tushunarlik;
- ta'sirchanlik;
- adabiy me'yorlariga qat'iy amal qilishdir.

**Eslatma!** Bu uslub ham ikki shaklda bo'ladi:

I. Og'zaki shakli – radio, televedeniya

II. Yozma shakli – gazeta, jurnal

**3. Baddiy uslub** - Ma'lum bir voqelikni badiiy tasvir vositalari orqali obrazli ifodalovchi va shu yo'1 bilan tinglovchiga estetik ta'sir etuvchi uslubdir.

**Eslatma!** Obrazlilik va estetik ta'sir etish badiiy uslubning muhim belgisidir.

**4. Ilmiy uslub** - Daliliy ma'lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga asoslanuvchi, har bir fan sohasining o'ziga xos atamalariga tayanuvchi, fikrni aniq va mantiqiy izchil shaklda bayon qiluvchi uslub ilmiy uslub sanaladi.

**5. Rasmiy uslub** – Adabiy tilning yozma rasmiy shakliga xos bo'lib, muayyan nutqiy qolip, qat'iy odat tusiga kirib qolgan shakllarga ega bo'lgan nutq uslubi rasmiy uslub sanaladi.

***Eslatma!*** Ish yurutish hujjatlari to'rt guruhga bo'linadi:

1. Tashkiliy hujjatlar (guvohnoma, yo'riqnama, nizom, shartnama va boshqalar).
2. Farmoyish hujjatlari (buyruq, ko'rsatma, farmoyish).
3. Ma'lumot-axborot hujjatlari (ariza, bayonnama, dalolatnama ishonchnama, tavsifnama, tarjimayi hol, tilxat, tushuntirish xati, e'lon va boshqalar).
4. Xizmat yozishmalari (taklifnama, telegramma, xatlar).

***Eslatma!*** Xizmat yozishmalarida “*sizga ma'lum qilaman sizga bildiramiz, sizga eslatamanki*,” “*...-ga rozilik bildiramiz*” “*...-ga kafolat beradi*” qolipidagi gaplar qo'llaniladi.

***Eslatma!*** Farmoyish hujjatlarda gap kesimlari «tayinlansin», «topshirilsin» majhul nisbat, III shaxs, buyruq maylidagi fe'llar bilan ifodalanadi.

## **DTM TESTLARDA KELADIGAN QO'SHMA GAPLARNI ANIQLASH OSON USULI**

***Eslatma!*** Quyidagilarga amal qilsangiz, albatta, testda adashmaysiz:

- 1. Birinchi gapda kesimlar miqdorini aniqlab, gapni soda yoki qo'shma ekanini aniqlab olamiz.** (*Sodda gap berib chalg 'itishi tabiiy. Bu qo'llanmaning 41-betida berilgan!*)
- 2. Diqqat bilan qo'shma gap qismlarini bog'layotgan vositalarni aniqlaymiz.** Chunki u qo'shma gap turini hal qiladi: agar teng bog'lovchi bo'lsa, **bog'langan**: ergashtiruvchi bog'lovchi bo'lsa, **ergashgan**; bog'lovchi umuman bo'lmasa, **bog'lovchisiz qo'shma gap**. (*Qo'llanmaning 43-57 betlar oralig 'ida yoritilgan*).
- 3. Bosh gap va ergash gap oldin yoki keyin kelganini aniqlash oson eslab qolish usuli:** Faqat *-ki yuklamasi* va *shuning uchun, shu sababli, shu tufayli ko'makchi qurilmalari HAR DOIM BOSH GAP TARKIBIDA KELADI*. *Qolgan ergashtiruvchi bog'lovchilar ERGASH GAP TARKIBIDA KELADI.* (*Nisbiy so'zlarni bilasiz, so'roq olmosji ergash gapda, unga javob bo'luvchi ko'rsatish olmoshi esa Bosh gap tarkibida keladi*).

#### **4. Har bir qoidani yodlashga harakat qilmang, ongli tushunishga harakat qiling.**

**P/S: Shularga amal qiling, testda adashmaysiz, InshaAlloh.**

#### **Izohli lug'at<sup>8</sup> (mustahkamlash uchun)**

**Viqor** - mag‘rurona va ulug‘vor ko‘rinish, salobat;

**Kibr** - o‘zini hammadan yuqori his etish; manmanlik, kekkayish hissi;

**G‘urur** - insonning o‘z qadr-qimmatini bilishi, hurmat qilishi; izzat-nafs;

**Gunoh** – odob-axloq doirasiga sig‘maydigan ish, nojo‘ya xattiharakat; ayb;

**Iffat** – vijdoni poklik, nomus

**Haromxarish** – nopol, iste’molga yaramaydigan;

**Hayo** – nojo‘ya, noma’qul xatti-harakatdan tiyilish hissi; uyat, sharm;

**Odob** - axloqqa, shaxsning ichki dunyosiga oid;

**Ma’naviyat** - jtimoiy va shaxsiy hayotdagi yaxshi axloq;

**Ziyo** - bilim, ilm, ma’rifat;

**Uslub** – til unsurlarining ma’lum vazifa bajarishiga bog‘liq holda birlashadigan, o‘ziga xos tanlanadigan

**tizimi;**

**Malaka** – bilim va kasbni, ishni yaxshi o‘zlashtirish natijasida orttirilgan tajriba; mahorat;

**Sheva** – umumxalq tilining ma’lum hududga xos tarmog‘i, mahalliy til.

**Targ‘ibot** – biror g‘oya, ta’limot va shu kabilarni yoyishga, kishilar ongiga singdirishga qaratilgan ishlar.

**Adabiy** – badiiy adabiyotga, badiiy ijod faoliyatiga oid;

**Mavlono** - olim va fozil kishi.

**Mulozim** – o‘tmishda amaldorlar xizmatida bo‘lgan kishi.

**Jigargo‘sha** – eng yaqin kishi, tug‘ishganday yaqin birodar; farzand.

**Padari buzrukvor** – cheksiz hurmatga loyiq ota.

**Xok** – mayda tuproq; tuproqqa aylangan inson jasadi.

**Aqlini peshlab** – asboblar tig‘i, damini tiklamoq; aql-idrokni o‘stirmoq.

<sup>8</sup> Bu ma’lumotlar yangi nashrdagi 8-sinf ona tili (2019) darsligidan olindi.

---

**Uchqun** – olov zarrasi

**Shu’la** – lipillab, ko‘rinib-ko‘rinmay turgan olov yoki yorug‘lik.

**Nur** – bir yo‘nalishda yo‘nalgan yorug‘lik.

**Ziyo** – bilim, ma’rifat.

**Yog‘du** - tumanday taraluvchi yorug‘lik.

---

**Lapar** – to‘y va yig‘in, xalq sayillarida yigitlar bilan qizlar orasida tarafma-taraf bo‘lib birgalikda ijro etiladigan qo‘sishq va raqs;

**Baxil** – birovga hech narsani ravo ko‘rmaydigan; sarfxarajatni yoqtirmaydigan;

**Saxiy** – birovdan narsasi, iliq so‘zi va mehrini ayamaydigan

**Insof** – adolat va vijdon bilan ish tutish

**Omonlashmoq** – salomlashmoq; vidolashmoq

**Yo‘ymoq** - biror narsaning sababini o‘zicha taxmin qilmoq.

**Nazm** – she’riy shakldagi ijod.

**Tig‘** – nayza, yoy kabi jang quroli;

**Shukrona** – Yaratgan bergen ne’mat uchun savob ish qilmoq

**Mutafakkir** – buyuk donishmand;

**Devon** – nazmiy asarlar to‘plami;

**Insho** – tashkil etish; yaratish, qurish, barpo qilish

**Bilim** – borliq haqidagi yoki ilmiy, madaniy, ma’rifiy, ma’naviy, harbiy va boshqa sohalarga oid nazariy, amaliy ma’lumotlar, tushunchalar majmuyi.

**Ko‘nikma** – biror ishda orttirilgan malakadan kamroq tajriba;

**Malaka** – kasbni, ishni yaxshi o‘zlashtirish natijasida orttirilgan ko‘nikmadan balandroq

mahorat;

**Tafakkur** - o‘ylash, fikr yuritish

**Izlanish** - yangilik topish, yaratish harakatida bo‘lish, shunday maqsadli harakat, faoliyat;

**Mas’uliyat** – biror ish, xatti-harakat oqibati, natijasi uchun bo‘lgan javobgarlik.

---

**Muqarrar** – vujudga kelishi aniq, shubhasiz, turgan gap

**Chiston** – narsa yoki hodisaning muhim belgilarini tavsiflab, nimaligini topishni o‘quvchiga havola etadigan she’riy shakl;

**Mantiq** – gap, fikr, harakat kabilarning aqlga monandligi, asosliligi

**Madrasa** – sharq o‘tmishida oliy ma’lumot beruvchi ta’lim muassasasi;

**Mohir** - Yuksak mahoratga ega bo’lgan, mahorat qozongan.

**Me’mor** – imorat qurilishini loyihalash bo‘yicha mutaxassis.

**Poydevor** – bino devorlarining asos qismi;

**Fursat** - vaqtning zum, damdan keyingi kichik qismlaridan biri

**Boqiy** – abadiylikka ega

**Oliy** - eng yuqori;

**Malolat** – malol kelish; og‘rinish

**Sa’b** – qiyin, og‘ir.

**Afgor** – xor bo‘lish, ezg‘in holatga tushish;

**Mi’odi** – muddat, ijro vaqtı.

**Ko‘shish** – sa’y-harakat;

**Nesh** – nish, tig

**Resh** – yara, jarohat

**Solik** – komillik sari harakat qilayotgan kishi

**Takbiri fano** – o‘tkinchi dunyo uchun haqni ulug‘lash;

**Ganj** - davlat, boylik

**G‘avvosliq** - suv tagida harakat qilish, suzish

**Sayyor** – sayr qiluvchi, sayohatchi;

**Tegishmoq** – tegajoqlik qilmoq;

**Ahmoq** – bilib turib xato qiladigan kishi;

**Karomat** – mo‘jizasimon holat;

**Evaz** – o‘rniga, badaliga to‘lanadigan yoki olinadigan haq, narsa; badal

**Bashara** - xunuk ko‘rinishli, yoqimsiz qiyofa.

---

**Pili damon** – maqsad, mo‘ljal

**Palang** – yo‘lbars;

**Mo‘ri lang** – cho‘loq chumoli;

**Mash’uf** – afzal, tuzuk.

**Kufr** – kofirlik, dindan qaytganlik;

**Tama’** – istak, xohish;

**Rohravg‘a kesh** – yo‘lovchi, maqsadga intilgan kishi.

**Bandi rohe, besh** – yo‘ldagi band, to‘sinq; monelik;

---

---

**Nahv** – tilning sintaktik qurilishi haqidagi soha;

**Johil** - o‘qimagan, savodsiz kishi;

**Dovul** - yomg‘ir aralash kuchli shamol

**Bo’ron** - kuchli shamol;

**Mahv** - daf qilish, yengish.

**Hilm** - muloyimlik, halimlik

**Axloq** – xulqning arab tilidagi ko‘plik shakli

**Milh** - tuz;

**Xulq** - kishining o‘zini tutishi, ma’naviy qiyofasi;

**Qovog‘ini solmoq** - achchiqlanib qoshini chimirib olmoq;

**O‘rlamoq** – balandga ko‘tarilmoq;

**Xomush bo‘lmoq** - g‘amgin holatga tushmoq;

**Kirdikor** - yashirib qilingan noto‘g‘ri ishlar;

**O‘zini bosmoq** - hayajon holatida o‘zini tutmoq;

**Langar** - qirg‘oqqa tashlanib, kemani ushlab turadigan moslama

**Munofiq** - so‘zi va amali bir bo‘lmagan kishi;

**Jo‘yali** – o‘rinli, muvofiq

**Kerik** – orasi ochilgan; teshiklari katta

**Siyrat** - odamning ichki olami, ruhiy dunyosi

**Javraqi** - yoqimsiz gaplarni ko‘p gapiradigan

**Mag‘rib** - kunbotish tomon, g‘arb

**Notob** - tobi qochgan, kasallangan;

**Dongdor** – shuhrat qozongan, dovrug‘i ketgan;

**Hujra** – madrasa, qorixona va masjidda shogirdlar, domlalar yashashi uchun ajratilgan kichik xona(lar); odam yashaydigan kichik xona;

**Kigiz** – jundan bosib (presslab) tayyorlanadigan qalin, pishiq palos, namat;

**Valine’mat** - o‘ziga qaram kishilarni moddiy jihatdan ta’minlab turuvchi, ularga ne’mat beruvchi shaxs;

**Mustabid** – mutlaq hukmronlikka ega bo‘lgan hokim, istibdod egasi;

**Mahram** – ishonchli xizmatkor, do‘st;

**Xo‘jazoda** – xo‘jayinning o‘g‘li; asilzoda kishining farzandi;

**Muqaddima** – bir ish, narsa, matnning boshi;

**Xiroj** – diniy soliq;

**Devon** – tashkilotning yozishmalar amalga oshiriladigan bo‘limi;

**Zakot** – diniy soliq;

**Qushbegi** - o‘tmishda hukumat boshlig‘i.

---

---

**Qabohat** – chegara, me’yor

**Qasd** – astoydil urinish

**Sa’y** – ahd, kirishmoq

**Maqbul** – qabul qilingan, e’tirof etilgan

**Nuqson** – me’yor darajasidan pastlik; yetishmovchilik;

**Fazl-u kamol** – fazilatlar buyukligi;

**Af’ol** – fe’l-atvor, xarakter

**Musofir** – safardagi kishi;

**Mijja** – uyqusiz holda bo‘lish

**Qoqmay** – boshi berk

**Jin (ko‘cha)** – faqat odam yura oladigan tor

**Choshnagir** – ayollarga hurmat yuzasidan murojaat qilganda qo‘llanadigan so‘z

**Qandil** – yoqish uchun shamlar solib ilib qo‘yiladigan uy jahozi;

**Koshin** – chinniga o‘xshatib ishlangan, yaltiroq, naqshli g‘isht plitkasi;

**Bakovul** – podshoh, xon va lashkarga ovqat tayyorlash ustidan nazorat olib boruvchi, bosh oshpaz

**Mo‘ysafid** – yoshi o‘tib qolgan kishi;

**Muchang** – oyoq, qo‘l, tana va bosh a’zolari

**Mirzo** – o‘zgalar orasida eng oldi, sarasi

**Ilik** – qo‘l;

**Mo‘tabar** – ulug‘, aziz;

**Nizo qilsa** – ziddiyatda bo‘lmoq;

**Kjlkj** .

**Bakovul** – podshoh, xon va lashkarga ovqat tayyorlash ustidan nazorat olib boruvchi, bosh oshpaz

**Shig‘ovul** – Buxoro va Xiva xonliklarida elchilarni kutib olish, xon huzuriga olib kirish, saroydagи qabul marosimlarini boshqarish va nazorat qilish bilan shug‘ullangan shaxs;

**Salom og‘asi** – xon va amirning huzuriga ish va arz bilan kelganlar haqida xon, amirga xabar beruvchi va xon, amirning javobini ularga yetkazuvchi amaldor

**Dodxo** – Buxoro xonligidaadolat, haq-huquq istovchilardan amir nomiga ariza qabul qiluvchi va uning javobini arzchilarga yetkazuvchi lavozimli kishi

**Ponsadboshi** – Qo‘qon xonligida qozixona ishlari ustidan nazorat olib boruvchi amaldor;

**Hudaychi** – amir, xon saroyida rasmiy marosimlarga boshchilik qilib, uni nazorat qilib turgan lavozimli shaxs.

**Navozish** – sozanda;

**Nazarkarda** – ulug‘ kishilarning nazari tushgan.

**Nabi** – xudoning xabarini yetkazuvchi;

**Nabotot** – o‘simliklar dunyosi;

**Navozanda** – kuy ijro etuvchi, navo qiluvchi;

**Lafzi** – nutq hosil qiluvchi a’zo

**Oroyish** – bezak, bezalgan;

**Qabog‘** – ko‘z kosasini qoplovchi;

**Mengiz** – yuzdagi xol;

**1. Jelatin**(fr. gelatine– dirildoq, yelimshak; lot. gelatus– muzlagan) Yosh mol suyagi va terisidan tayyorlanadigan bir nav yelimshak modda.

**2. Jungli**(ing. jungle; f.-hind – changalzor, o‘rmon)

Chakalak, qalin o‘rmonzor.

**3.Jyuri**(fr. jury– hakamlar guruhi; lot. juro– qasam,

ont ichaman; qasamyod qilaman) Musobaqa, tanlov va shu

kabilarda g‘oliblikni va mukofot berishni belgilovchi mutaxassislar, hakamlar guruhi.

**Faqir** – kambag‘al, oddiy; bechorahol;

**Mulozim** – qulok soluvchi, xizmatkor

**Qaviy** – kuchli, baquvvat;

**Uruj** – ro‘za, tiyilish;

**Dag‘i** – tag‘in, yana;

**Yozuq** – farq, tafovut.

**Xilof** – gunoh, ayb, qilmish;

---

---

**Sharaf** – faxrlanishga arziyadigan narsa, biror ijobjiy xislat, xizmat yoki iqtidor tufayli xalq orasida taratilgan dong;

**Zora** – qani edi, koshki edi;

**Dorivor** – kasalliklarga davo bo‘ladigan va malham olinadigan yoki taomni xushxo‘r qiladigan modda;

**Qabarish** – ishslash, ishqalanish yoki kuyish natijasida bo‘rtma hosil bo‘lishi;

**Nabotot** – o‘simliklar dunyosi, o‘simliklar;

**Hakim** – ko‘pincha, o‘tmishdagi o‘tkir tabib; donishmand, faylasuf

**Darmon** – tirik organizmdagi quvvat, mador, kuch;

---

**To‘bichoq** – chopqir, yo‘rg‘a ot;

**Dorug‘asi** – shahar posbonlari sardori;

**Tarh** – chizma lavha: loyiha, reja;

**Yog‘iy** – dushman, g‘anim;

**Taftish** – bo‘lib o‘tgan ish, hodisa va shu kabilar yuzasidan yoki haqiqiy ahvolni aniqlash maqsadida o‘tkaziladigan tekshiruv;

**Azon** – namoz o‘qishga chaqiriq; tong yorishish, g‘ira-shira payti; erta tong.

**Fozila** – ilm-fan asoslarini yaxshi egallagan ayol; olima

**Qutvol** – shahar hokimi;

**Navkar** – o‘tmishda harbiy xizmatkor, askar;

**Tolor** – yog‘och yoki yengil metall panjaradan qilingan ayvon

**Eshkakchi** – odam va yuklarni daryodan o‘tkazishni o‘ziga kasb qilib olgan kishi; qayiqchi;

**Ko‘shk** – qadimda baland, bahavo qilib solingan yengil imorat;

**Mehrob** – masjid ichida uning qibla tomonidagi devorida taxmon shaklida qurilgan joy (namoz shu tomonga qarab o‘qiladi)

**Haram** – Xos, begonalar kirishi man etilgan joy,

**Chodir** – Matodan qurilgan kappa, Palatka.

**Nosih** – nasihatgo‘y;

**Tizgin** – hayvonlarni bog‘lash yoki qantarib qo‘yish uchun xizmat qiladigan, uchi suvliqqa yoki boshvoqqa biriktiriladigan uzun tasma yoki chizimcha; boshqarish vositasi;

**Nuqson** – kishi nomiga nomunosib, uni salbiy jihatdan ko‘rsatadigan belgi; kamchilik, illat, qusur, ayb;

**Tama** – birovdan bir narsa undirish hissi, o‘ziniki qilish, olishga bo‘lgan intilish; umidvorlik, umid, ilinj;

**Tamiz** – o‘z bilimi, aqli, farosati bilan tegishlicha ish tutish qobiliyati; fahm, farosat

**Raso** – kami yo‘q, to‘liq, but; aqliy jihatdan to‘la rivojlangan, kamolotga erishgan; yetuk, barkamol

**Xalifa** – musulmonlar jamoasi va musulmon davlatining diniy, ayni bir paytda dunyoviy boshlig‘i.

**Ziyorat qilmoq** – muqaddas joylarga, mozor va qabristonlarga borib sig‘inish; hurmat

yoki rasmiyat yuzasidan tabarruk kishilar huzuriga tashrif buyurib, holidan xabar olish;

**Omoch** – ulov qo‘shib yer haydaladigan, metall tishli qadimgi eng oddiy yog‘och yoki temir asbob.